

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_

f.f.d., dots. B. Abdushukurov

“\_\_\_” - \_\_\_\_\_ 2018-y.

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi IV kurs 402-guruh talabasi  
Jo‘rayeva Laylning “Gap bo‘laklarini o‘rgatishda modellashtirish metodidan foydalanish”  
mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

f.f.d.prof.

Z. Xolmanova,

“O‘zbek tilini o‘qitish  
metodikasi” kafedrası professori

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ f.f.n. M.Hakimova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrası

o‘qituvchisi,

\_\_\_\_\_ G.Raxmanova

TDIU akademik litseyi ona tili va  
adabiyot o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri,

f.f.n. I. Azimova

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-y

**TOSHKENT – 2018**

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. GAP BO‘LAKLARINING XALQARO MODELLARI</b> .....	9
1.1. Modellashtirish va uning tavsifi.....	9
1.2. Ega va kesimning xalqaro modellari.....	14
1.3. Ikkinchi darajali bo‘laklarning xalqaro modellari.....	18
<b>II BOB. O‘ZBEK TILIDAGI GAP BO‘LAKLARI MODELLARI</b> .....	23
2.1. O‘zbek tilidagi ega va kesimning modellari.....	23
2.2. O‘zbek tilidagi ikkinchi darajali bo‘laklarning modellari.....	32
<b>III BOB. UMUMTA’LIM BOSQICHLARIDA GAP BO‘LAKLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI TUSHUNTIRISH</b> .....	39
3.1. Ega va kesimni tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.....	39
3.2. To‘ldiruvchini tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.....	47
3.3. Aniqlovchini tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.....	51
3.4. Holni tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.....	55
<b>IV BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI</b> .....	61
<b>UMUMIY XULOSALAR VA METODIK TAVSIYALAR</b> .....	69
<b>TAYANCH SO‘ZLARNING O‘ZBEKCHA INGLIZCHA VA RUSCHA LUG‘ATI</b> .....	72
<b>FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	73

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilingning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"<sup>1</sup>. O'zbek tilshunosligida sintaktik birliklarning tildagi vazifalarini aniqlash tadqiqi masalasi ham ona tilingning yangi-yangi qirralarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha, innovatsion ta'lim bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,"<sup>2</sup> deb ta'kidlagan edilar.

2017-yil 7-fevralda imzolangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" IV bobi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'limining "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'limi aynan ta'lim sohasiga bag'ishlangan: "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 86-bet

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 61-bet

standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"<sup>1</sup>.

“Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz”<sup>2</sup>.

Ulkan tilshunos olim filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta'kidlaganidek, “Ma'naviyatning, xususan milliy ma'naviyatning shakllanishi va kamol topishida ona tili favqulodda o'rin tutganligi bois istiqloq davrida ona tili, ona tili ta'limi, til masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi qonunimizga muvofiq odil va xolis til bo'ldi, yurtimiz kabi tilimiz obod bo'ldi”<sup>3</sup>.

2017-yilda Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan DTSda shunday deyilgan: “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi — o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

O'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki

---

<sup>1</sup> 2017-yil 7-fevralda imzolangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

<sup>2</sup> 2017-yil 7-dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag'ishlangan yig'ilishdan.

<sup>3</sup> Mahmudov N. Tilimizning tillo sandig'i. T.: G'. G'ulom, 2012.

hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

O'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

Ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan dolda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat<sup>1</sup>.

O'zbek (ona) tilini o'qitish markazida til o'rganuvchilarning o'zaro hamda o'qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog'i lozim bo'ladi. Ammo mana shu muloqot to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun grammatika qonun-qoidalarini yaxshi bilishga ko'maklashuvchi topshiriqlardan iborat mashg'ulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo'shishi talab etiladi.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda sintaksisni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tafakkur sohibi, ya'ni o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbek tilida tilishunoslikning katta bo'limlaridan biri bo'lmish sintaksis bo'limining asosiy o'rganish obyektlaridan biri gap bo'laklarini o'qitishda ta'lim berish usullaridan qaysilaridan foydalanilsa ta'lim sifati, mavzuni o'rgatish sifati oshishi masalasi hali o'rganilmagan. Shu sababdan gap bo'laklarini o'qitishda qo'llaniladigan metodlardan modellashtirish asosida o'qitish ustida izlanishni dolzarb deb bildik. Tadqiqot jarayonida olimlarning mavzu yuzasidan nazariy qarashlarini tahlil qilishni muhim deb bildik. Ushbu tadqiqot natijasida gap bo'laklarini o'qitishda modellashtirish metodi asosida o'rganishda kutilgan natijaga erishishning eng samarali usullari tavsiya etilishi, ta'lim berish sifatini

---

<sup>1</sup> "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2017-yil

yanada oshiradi, deb o‘yladik. Mazkur ish yuqoridagilarni hisobga olgan holda gap bo‘laklarini modellashtirish metodi orqali o‘rgatish va ushbu mavzuni o‘tishda qo‘llaniladigan grammatik model-qoliplar silsilasini ishlab chiqish, ularni dars jarayonida qo‘llash va shu asosda faol o‘quvchi shaxsini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘z navbatida tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tilshunosligida sintaktik hodisalarni o‘rganish o‘tgan asrning 30-yillarida jiddiy tusda boshlanib, bu borada bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarga aylangan turli sintaktik nazariyalar vujudga keldi<sup>1</sup>. Bu mustaqil nazariyalarning har biri o‘z tadqiq manbayiga ega bo‘lib, o‘ziga xos tadqiq usullari va metodologik tayanchlari asosida munosabatda bo‘ldi. Natijada ular tomonidan qo‘lga kiritilgan ilmiy yutuqlar ko‘p hollarda bir-biriga zid holatlarni yuzaga keltirdi. Bu tabiiy bo‘lib, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda, aytilganidek, serqirra mohiyatning turli tomonlari ochilgan, har bir yo‘nalish xulosasiga ana shu metodlar va tadqiqotchilar tomonidan ko‘zda tutilgan maqsad-u vazifalar asosida munosabatda bo‘lish ularni xolis baholash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligidagina emas butun jahon tilshunosligida sintaksis o‘qitish bo‘yicha qilingan ishlar mavjud. Ularning hammasini sanab o‘tirishning o‘zi sintaksis bo‘yicha muammolarning ham ko‘p ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida sistem nazariy tomondan tadqiqi borasidagi ishlar bu sohadagi ishlarning asosiylari qatorida turadi. Bu bilan nazariy tadqiq ko‘p muammolarni keltirib chiqarish omili sifatida baholanmasligi zarur, balki nazariy tadqiq asosida an’anaviy tilshunoslikda o‘zining uzil-kesil yechimini topmagan ayrim sintaktik hodisalardagi muammolarga barham berila boshlandi. Shu bilan birga gap bo‘laklari masalasiga valentlik imkoniyatlari asosida yondashildi. Bunda jahon tilshunosliklaridagi kabi gapning eng kichik qurilish qoliplari [WPm] va uning kengayish imkoniyatlari tadqiqotchilar N.Mahmudov, M.Boshmonov, M.Abuzalova, R.Sayfullayeva, R.Abdusamatov, Sh.Akramov kabilar

---

<sup>1</sup>Ne‘matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro: NS, 2003. 21-bet.

tadqiqotlarida ham koʻzga tashlanadi. Aynan gap boʻlaklarini modellashtirish asosida oʻqitish chet el taʼlimida inglizcha qolip bilan modellashtirilgan. “Grammar and Information Structure a study with reference to Russian” Natalia Slioussar asarida rus va ingliz tillarida gap boʻlaklarining modellari keltirib oʻtilgan. Oʻzbek tilida esa A. Rahmatov “Kompyuter lingvistikasi asoslari” kitobida oʻzbek tilida gap boʻlaklarining modellari qisqacha keltirilgan. Ular tomonidan boshlangan tadqiq ishini boshqa muammoli holatlar bilan bogʻlash hamda masalani oydinlashtirish borasida keltirilgan fikrlar tadqiq ishining ilk qadami hisoblanadi. Bir qarashda gapning eng kichik qurilish qolipini maxsus tadqiq qilgan M.Abuzalova<sup>1</sup>, qoʻshma gaplarni mazkur tadqiq tamoyillari asosida oʻrgangan R.Sayfullayeva<sup>2</sup> va semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplarni maxsus tadqiq qilgan R.Bobokalonov<sup>3</sup> ishlarida masala kun tartibiga qoʻyilgandek tasavvur uygʻotadi. Lekin bu tadqiqotlarda taʼlim bosqichlarining umumiy oʻrta taʼlim va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimida gap boʻlaklarni oʻrgatishda modellashtirish metodidan foydalanilmayapti. Ushbu metoddan foydalanish haqida hech qanday tavsiyalar berilmagan.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Yuqorida taʼkidlaganimizdek, ushbu sintaktik birliklar yuzasidan turli munosabat va qarashlar mavjud. Biz ushbu ishimizda ustozlarning fikrlarini inobatga olga holda, gap boʻlaklarini xarakterini chuqurroq oʻrganishga, oʻzbek tilini oʻqitish modellarini tadqiq qilishga qaror qildik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni oʻrganishni vazifa qilib oldik.

- mavzu yoritilgan barcha ilmiy adabiyotlarni oʻrganib chiqish;
- ushbu mavzu yuzasidan boshqa tillarda yaratilgan asarlar va ulardagi fikrlarni aniqlash;
- badiiy adabiyotlardan gap boʻlaklariga xilma-xil misollar toʻplash;

---

<sup>1</sup>Abuzalova M. Oʻzbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Buxoro, 1994. – B. 22.

<sup>2</sup>Sayfullayeva R. Hozirgi oʻzbek tilida qoʻshma gaplarning formal-funksional talqini. – Toshkent: Fan, 1994. – B. 8.

<sup>3</sup>Bobokalonov R. Oʻzbek tilida gap sintaksisi va soʻz-gaplarning sistem-struktur talqini. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 35.

– barcha materiallarni o‘rganish, taqqoslash natijasida o‘z fikr-mulohazalarimizni o‘rtaga tashlash.

– an’anaviy hamda innovatsion ta’lim metodlarini chuqurroq o‘rganish;

– o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish.

**Tadqiqot obyekti.** Ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslikning sintaksis bo‘limiga oid hamda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga tegishli bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganib chiqish, ularni bir-biriga taqqoslash masalasi vazifa qilib olindi. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitishdagi an’anaviy va innovatsion metodlarni o‘rganish, gap bo‘laklarining har xil tillardagi modellarini qiyoslash va xulosalar chiqarish ham tadqiqot obyektiga kiradi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

–modellashtirish metodi atroflicha o‘rganilgan;

–modellashtirish metodining lingvistik jihatlari ochib berilgan;

–gap bo‘laklarining xalqaro modellari keltirib o‘tilgan bo‘lib, undan o‘zbek grammatikasiga joriy etilganligi ko‘rsatib o‘tilgan;

–tilshunos olimlarning gap bo‘laklarining o‘zbek tilidagi ishlab chiqqan modellari qiyoslab o‘rganilgan va misollar keltirilgan;

–ta’lim bosqichlarida gap bo‘laklarini modellashtirish asosida o‘rgatishga doir tavsiya va qulayliklari sanab o‘tilgan;

–darslarda gap bo‘laklarni o‘rganishda va mashqlar hamda topshiriqlarni bajarishda modellashtirish metodidan foydalanish imkoniyatlari aniq ko‘rsatib berilgan;

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Ushbu bitiruv malakaviy ish tadqiqotning umumiy tavsifi, kirish, to‘rt asosiy bob, umumiy xulosalar, o‘zbekcha-inglizcha-ruscha tayanch so‘zlar lug‘ati va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 77 betni tashkil etadi.



## **I BOB. GAP BO‘LAKLARINING XALQARO MODELLARI**

### **1.1. Modellashtirish va uning tavsifi**

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fan va ta‘lim sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda istiqloqlarning ilk yillaridayoq ta‘lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratildi. O‘g‘il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma‘naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta‘minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa‘y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir. Bu esa tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas‘uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday vazifalardan biri o‘zbek tilini o‘qitishda yangi metod va uslublardan foydalangan holda fanni o‘rganish va o‘rgatishdir. Ushbu metodlardan biri bu modellashtirish metodidir.

Model – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, yerning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani, pasportdagi suratni shu pasport egasining modeli deyish mumkin. Model tushunchasi (lotincha “modelus” so‘zidan olingan bo‘lib, “nusxa”, “andaza”, “o‘lchov”, “me‘yor” ma‘nolarni anglatadi) tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma sifatida tushuniladiki, unga muayyan obyekt haqida ma‘lumotlar kiritilganda hosila sifatida yana shu obyekt yuzaga keladi. Boshqacharoq tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o‘xshashi, taqlidi, tabiiy ko‘rinishidir), u o‘zbek tilidagi qolip, andoza so‘zlariga mos keladi. U hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi va aniq yoki mavhum obyektlar kichraytirilgan obyektlar va sxemalarda tadqiq etiladi. Buni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo‘lsak, olmani xarakterlovchi belgilar, atributlar – uning dumaloqligi, mevaligi, shirinligi kabilar o‘sha tushunchaning fikriy modeli hisoblanadi. Agar biz olmani loydan yoki sun‘iy bir

materiallardan yasasak, bu uning moddiy modeli hisoblanadi<sup>1</sup>. Atrofimizdagi dunyoni o'rganish natijasida noaniq, va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o'rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli (aynan kichik nusxa nazarda tutiladi) yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to'laroq akslantirishi zarur<sup>2</sup>. Modelning taqribiylik xarakteri turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajriba o'tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta'sir etadi.

Modellash uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarni o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Mavhum obyekt, olisda joylashgan obyektlar, juda kichik hajmdagi obyektlarni o'rganishda modellashtirishning ahamiyati katta. Modellashtirish uslubidan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod, geografiya fanlarida obyektning faqat ma'lum xususiyat va munosabatlarini aniqlashda ham foydalaniladi. Modellarni tanlash vositalariga qarab uni uch guruhga ajratish mumkin. Bular abstrakt, fizik va biologik guruhlar.

Abstrakt(mavhum) modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik va geografik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi.

Model quyidagi asoslarga ko'ra bilishda muhim hisoblanadi:

- birinchidan, u o'rganish obyektini soddalashtiradi;
- ikkinchidan, uni boshqa obyektlar ta'siridan ajratadi;
- uchinchidan, model obyektini ta'riflashni osonlashtiradi<sup>3</sup>.

Model dastlab amaliy sohalarda ishlatilgan. Keyinchalik ilm fanning ijtimoiy sohalariga ham kirib keldi. Bu matematika, kimyo fanlariga keng tadbiiq qilingani yaqqol ko'rindi. Modellarni quyidagicha tasniflash mumkin:

---

<sup>1</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2012. 10-bet

<sup>2</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2012. 11-bet

<sup>3</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2011. 34-bet

1. Tabiiy modellar – o‘rganilayotgan obyekt bilan bir turda bo‘ladi va undan faqat o‘lchamlari jarayonlarining tezligi va ba’zi hollarda yasalgan materiali bilan farq qiladi.

2. Matematik modellar – prototipdan (asl nusxadan) jismoniy tuzilishi bilan farq qiladi, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo‘ladi.

3. Mantiqiy-matematik modellar – belgilardan iborat bo‘lib, abstrakt model hisoblanadi va tafakkur jarayonini o‘rganishda qo‘llaniladi<sup>1</sup>.

Modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni ularning modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellari yasash va o‘rganishdir. Modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o‘rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo‘lgan umumilmiy metod hisoblanadi.

Modellashtirish jarayoni uchta unurni o‘z ichiga oladi:

–subyekt(tadqiqotchi);

–tadqiqot obyekti;

–o‘rganuvchi subyekt va o‘rganiluvchi obyekt munosabatini aks ettiruvchi model.

Lingvistik model tushunchasi struktur tilshunoslikning E.Sepir, L.Blumfeld, R.Yakobson, Chomskiy, Harris, Hokket kabi namoyandalari tomonidan kirib kelgan. Uning taraqqiyoti esa XX asrning 60-70 yillariga (matematik va kibernetik lingvistika rivojlana boshlagan davrga) to‘g‘ri keladi. Lingvistik modelni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Inson nutqiy faoliyati modellari. Bu modellar konkret nutq jarayonini va hodisalarini aks ettiradi. Masalan, aniq bir tovushning talaffuz modeli yoki nutqning yuzaga chiqish modeli.

---

<sup>1</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon – 2012. 11-bet

2. Lingvistik tadqiqot modellari. Bunda muayyan til hodisalari asosida olib borilgan tadqiqot jarayonini aks ettiradi.

3. Metamodellar – bunda lingvistik modellar saralanadi, u gipotetik-deduktiv xarakterga ega bo‘ladi, o‘ta abstraktlashgan va ratsionallashgan bo‘ladi<sup>1</sup>.

Modellashtirish tilshunoslikda strukturalizm yo‘nalishi ta’sirida faol tadbiiq qilina boshlandi. Gap strukturasiini modellashtirish g‘oyasi XX asrning 50-yillarda amerikalik tilshunos Charlz Friz tomonidan olg‘a surildi. Olim o‘z qarashlarini umumlashtirib, 1952-yilda “The structure of English” nomli tadqiqotini yaratdi. Ch.Friz o‘z konsepsiyasini distributive model deb nomlagan. Unga ko‘ra, gap muayyan so‘z turkumlariga oid bo‘lgan so‘zlar zanjiri hisoblanadi va tahlilda morfologiya bazasiga tayaniladi<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning “Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorida “...umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish; ona tilimizning internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, uning kompyuter uslubini, o‘zbek tili va dunyodagi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlari va lug‘atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog‘liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga tadbiiq etish...” vazifasi qo‘yilgan. Shundan kelib chiqib O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy tajribani bosqichma-bosqich tadbiiq etish masalasi qo‘yildi. O‘zbek tilini o‘qitishda innavatsion texnologiyalar, metodlar, didaktik o‘yinlar ishlab chiqilmoqda. Xorijiy ta’lim tajribasidan aynan sintaksis bo‘limida modellashtirish metodidan foydalanilgan:

---

<sup>1</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon – 2012. 12-bet

<sup>2</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. “Akademnashr” nashriyoti. 201. 32-bet.

“From discourse to syntax: what is encoded and how<sup>1</sup>? Tildan sintaksisga: qanday va qanday qilib kodlangan”. Biz bilamizki, grammatikada izchil tushuncha yo‘q, shuning uchun grammatik ma‘lumotda kodlash uchun ikkita muhim strategiya (san‘at) mavjud. Birinchidan, u quyidagi teglarga aylantishimiz mumkin. Masalan, agar element X foizdan kamroq bo‘lsa, u “yangi” deb belgilanadi, aks holda “berilgan” deb nomlanadi. Ushbu teglar noaniq. Savol ular mazmunli bog‘liqlikmi yo tildagi IS tizimining mazmunli muvofiq ostonasimi. Misol keltirsak, tasavvur qiling, faollashtiruv tugagandan keyin ma‘lum bir qiymat past bo‘ladi. Element texnik jihatdan e‘tiborimiz markazida emas. Demak, bundan oldin u “kirish mumkin” va “berilgan” kontekstdan so‘ng, u “faol emas” va “yangi” (uning ma‘nosida) agar biz unga qaytib kelishni istasak, qayta tiklaymiz. Shubhasiz, har ikkala strategiya va ba‘zan ularning kombinatsiyasi leksik kirish bosqichida qo‘llaniladi. Shunday qilib, agar biz miqdoriy tushunchalarni ko‘rib chiqsak, ko‘pgina tillarda grammatik kodlash faqat bitta va boshqalarga o‘xshashdir, lekin cheksiz ko‘p gradatsiyalar so‘zma-so‘z ma‘lumotlar bilan ifodalanishi mumkin. Grammatik kodlash jarayoni sahnada sodir bo‘ladigan ma‘lumotlardan kelib chiqadi<sup>2</sup>.

Modellashtirish metodi dastavval aniq fanlar, ya‘ni algebra, geometriya, tabiiy fanlardan geografiya, botanika, anatomiya va biologiya sohalarida tadbiiq etilgan. Modellashtirish fan obyektini o‘rganishni osonlashtiradi. Obyektini kichiklashtirish yoki boshqa shunga o‘xshash narsa yoki buyumga qiyoslab o‘rganadi. Bu esa fanni chuqur va atroflicha o‘rganishga katta yordam beradi. Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikka faol tatbiq qilina boshlandi. Bunda olimlar mazkur metodning bir qator afzalliklari va pragmatik jihatlarni nazarda tutadilar. Sodda gaplar va qo‘shma gaplarning modellaridan shu paytgacha foydalanib kelinadi. Lekin modellashtirish metodi asosiy metod sifatida e‘tibor berilmagan edi.

---

<sup>1</sup>Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian . Copyright © 2007: All rights reserved. 10-bet.

<sup>2</sup>Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian . Copyright © 2007: All rights reserved 25-bet

## 1.2. Ega va kesimning xalqaro modellari

Hozirda O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim tizimidan foydalanish uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xorijiy ta’limdan unumli foydalanish ta’lim uchun tadbiiq qilish metodistlarning eng katta va zarur vazifalaridir. Yuqorida model haqida va uning bizga kerakli jihatlari haqida aytili. Shundan kelib chiqib, fanni o‘qitishning innavatsion yondashuv va texnologiyalardan foydalanib, ushbu ishda ifodalandi. Ingliz va rus tillarida gap bo‘laklarining modellarini ko‘rib chiqib, o‘zbek tilida ham shunday modellar ishlab chiqildi. Quyida ingliz va rus tillaridagi gap bo‘laklari haqida ma’lumot va ularni tushuntirishda gap bo‘laklarining modellari berilgan.

Modellashtirish metodi ayrim tillarda, jumladan, ingliz tilida faol tadbiiq qilingan. O‘zbek tilidagi gap bo‘laklari uchun modellar aynan ingliz tilidagi gap bo‘laklari qolipidan misol qilib olingan edi. O‘zbek tilida sodda gap qurilishi: S + O + V yoki hozirgi taklifda: E+T+K (*Men kitob o‘qidim. Men xat yozdim*) bo‘lsa, ingliz tilida S+V+O. (*I read book – Men kitob o‘qidim. I write a letter – Men xat yozdim*).

S = ega(subject), O = to‘ldiruvchi(object), V = kesim(verb).

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek tilida qo‘shma gapning eng kichik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$S_1 + V_1, S_2 + V_2$ : *Bahor keldi, ishlar qizib ketdi.*

Ingliz, rus tillarida sodda gap qurilishi quyidagicha belgilangan<sup>1</sup>:

Model	Π+Γ	S + V	E+K
Misollar	<i>Я пишу</i>	<i>I am writing</i>	<i>Men yozyapman</i>
	<i>Он читает</i>	<i>I have read</i>	<i>U o‘qidi.</i>

S+V : *I read (Men o‘qidim), He goes(U ketdi).*

S+V+O: *We came to the university (Biz universitetga keldik.)*

<sup>1</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon – 2012. 16-bet

Gapning tarkibiga kiruvchi va birorta soʻroqqa javob boʻluvchi soʻzlar gap boʻlaklari deyiladi<sup>1</sup>. Gap boʻlaklari bosh boʻlaklar va ikkinchi darajali gap boʻlaklariga boʻlinadi. Bosh boʻlaklarga ega(subject – предмет) va kesim(verb – глагол) kiradi. Ikkinchi darajali boʻlaklariga toʻldiruvchi (the object – объект), aniqlovchi (the attribute – определительный) va hol (modifier – модификатор) kiradi. Yigʻiq gap faqat bosh boʻlaklardan iborat.

Masalan: *The car stopped.* (S+V – Subject – the car, V – stopped)

*Машина остановилась* (П+Г – предмет – *Машина*, глагол – *остановилась*).

*Mashina toʻxtadi.* (E+K) (Ega – mashina, Kesim – toʻxtadi).

Kesim (The predicate or verb. Gap boʻlaklarining modellashtirishida kesim gap boʻlagining modeli ingliz tilida – V, rus tilida – Г) gapning bosh boʻlagi hisoblanadi. Oʻzbek tilida bitta kesimning oʻzi ham gap boʻlib kela oladi. Lekin ingliz va rus tillarida eng kichik yigʻiq gap ega+kesimdan iborat.

Kesim sodda va qoʻshma kesimga boʻlinadi. Qoʻshma kesim ham oʻz navbatida qoʻshma ot-kesim va qoʻshma feʼl-kesimga boʻlinadi<sup>2</sup>:

*He learns French* (sodda feʼl kesim – simple verb – learns). (S+<sub>sv</sub>V+O). *U fransuz tilini oʻrganadi.*

*My father is a doctor* (qoʻshma ot-kesim – composite noun predicate: is a doctor). (S+<sub>c</sub>V) *Mening otam — doktor.*

*I must go there at once* (qoʻshma feʼl-kesim(composite verb predicate) – must go). (S+<sub>c</sub>V+M). *Men u yerga zudlik bilan borishim kerak.*

Qoʻshma ot-kesim to be bogʻlovchi feʼlining shakli va ot qismdan iborat boʻladi. Kesimning ot qismi uning asosiy maʼnosini ifodalaydi.

Ega (The subject. Gap boʻlaklarini modellashtirishda ega gap boʻlagi modeli – S, П) kesimdan keyingi boʻlak hisoblanadi. Ingliz tilida bosh boʻlak qismidadir. Chunki gap boʻlishi uchun ega va kesimdan iborat boʻlishi kerak. Ega barcha soʻz turkumlari bilan ifodalanadi. Uning qaysi soʻz turkumlari bilan

<sup>1</sup> Gʻaprov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent “Turon - iqbol” – 2017. 255-bet

<sup>2</sup> Gʻaprov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent “Turon - iqbol” – 2017. 259-bet

ifodalanganligini ham modellashtirishda berishga harakat qildik va subject belgisidan keyin pastki qismda ko‘rsatdik. Masalan:

Ega quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Ot(noun – N) bilan: *The steamer has arrived*( $S_N+V$ ). *Paroxod yetib keldi.*

*The meeting is over*( $S_N+V$ ). *Yig‘ilish tugadi.* Ot – noun bilan ifodalangan ega yuqoridagidek modelashtiriladi.

2. Olmosh(pronoun – P) bilan: *He works at a factory*( $S_P+V+M$ ). *U zavodda ishlaydi.*

*Who tore this book?*(  $S_P+V+O?$ ) *Bu kitobni kim yirtdi.* Olmosh – pronoun bilan ifodalangan ega yuqoridagidek modellashtirildi.

3. Infinitiv(The infinitive) va infinitivli iboralar bilan: *To swim is pleasant.*( $S_I+V$ ) *Cho‘milish yoqimli.*

*For him to come was impossible.*(  $S_I+V$ ) *Uning uchun kelishning imkoni yo‘q edi.* Infinitiv bilan ifodalangan ega  $S_I$  bilan modellashtirildi.

4. Gerund(the gerund) yoki gerundli ibora bilan: *Smoking is not allowed here.* ( $S_G+V+M$ ) *Bu yerda chekishga ruxsat etilmaydi.*

*Listening to music is loved to me.*(  $S_G+V+O$ ) *Musiqa eshitish menga yoqadi.* Gerund bilan ifodalangan ega yuqoridagidek  $S_G$  bilan modellashtirildi.

5. Son(numerative – Nm) bilan: *Three were absent from the lecture.* ( $S_{Nm}+V+M$ ) *Leksiyada uchta (uch kishi) yo‘q edi.*

Ega va unga qarashli bo‘lgan ikkinchi darajali bo‘laklar ega (yoyiq ega) guruhini tashkil qiladi. Kesim va unga qarashli, tobe ikkinchi darajali bo‘laklar kesim (yoyiq kesim) guruhini tashkil qiladi.

Masalan:

Ega guruhi(Subject group)	Kesim guruhi (Predicate group)
<i>The blue car</i>	<i>stopped at the gate.</i>
<i>Ko‘k mashina</i>	<i>darvozada to‘xtadi.</i>
<i>The manager of our office</i>	<i>has received a telegram<sup>1</sup>.</i>

<sup>1</sup>G‘apurov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent “Turon - iqbol” – 2017.



Ingliz tili grammatikasining butun modeli juda katta hajmga ega. Bunda o'quv materialining hajmidan kelib chiqqan holda nisbatan qisqartirilgan modeli keltiriladi. Gaplarni tadqiq qilishning uch bosqichli ko'rinishi umum tomondan tan olingan:

- 1) so'zlar (so'z turkumlari);
- 2) frazalar (gap bo'laklari);
- 3) gaplar (gap konstruksiyalarining sxemalari)<sup>1</sup>.

Ingliz tilidagi gaplarning asosiy konstruksiyalari ro'yxatini keltiramiz:

1. Ega+kes.+to'ld.+hol (kengaytirilgan darak gap) *Students bought books yesterday.*

2. Ega+kesim (kengaytirilmagan gap) *It is good.*

3. Ega+gram.f.+not+k+to'ld.+hol (inkor gap) *Students did buy books yesterday.*

4. Aniq.+ega+kes.+to'ld.+aniq.+hol (aniqlovchili gap) *The blue car stopped at the big gate.*

5. Gram.f.+ega+k+to'ld.+hol (umumiy so'roq gap) *Has he been working since morning?*

6. So'roq so'z+gram.f.+ega+k+to'ld.+hol (maxsus so'roq gap) *Why are you sitting here?*<sup>1</sup>

Yuqoridagi modellarda ega va kesimning turlari ham berib o'tildi. Ushbu modellashtirishda bosh bo'lakning turlari bo'lak modelidan oldin berilgan. Bosh bo'laklar so'z turkumlari bilan ham ifodalangan. Ushbu jihatlar ham modellashtirishda berilgan. Ushbu qolipda esa so'z turkumi gap bo'lagi modelidan keyin pastki qismda berib o'tildi. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun gapni tashkil qiluvchi bosh gap bo'laklari aynan shu qolipda tushuntirib o'rgatiladi. O'rganuvchilar ushbu model – formula asosida tilni osonroq va tezroq o'rganadilar.

---

<sup>1</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2012. 16-bet

<sup>1</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2012. 22-24-bet

### 1.3. Ikkinchi darajali bo‘laklarning xalqaro modellari

Ingliz va rus tillarida ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklardan so‘ng joylashadi. Ular gapni yanada to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Yoyiq gapda bosh bo‘laklardan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchi – object - O, aniqlovchi – attributive – A, hol – modifier – M) ham ishtirok etadi. Masalan:

*The blue car stopped at the gate.* (A+S+V+M)yoki (S+V+M).

*Ko‘k mashina darvoza oldida to‘xtadi.* (A+E+H+K)

Aslida aniqlovchi barcha gap bo‘laklarni izohlagani uchun bo‘lakning bo‘lagi sifatida ko‘riladi va modellashtirishda biror belgi bilan kamdan kam holatlarda ifodalanadi. Bu gapda ikkinchi darajali bo‘lak – *blue* so‘zi (aniqlovchi), ega – *the car* so‘zini izohlab kelyapti, ikkinchi darajali bo‘lak – *at the gate* (o‘rin holi)kesim *stopped*ni izohlaydi.

Reinhart va Neeleman va Reinhartda ishlab chiqilgan eng samarali konfiguratsiyalar **IS**(International Syntax) modeli hisoblanadi. Masalan, to‘ldiruvchi – object “**S+V+O**” jumlasida ingliz tilida ta’kidlangan bo‘lsa, to‘ldiruvchi – object “**DP**” yoki VP yoki IP ga e’tibor qaratilishi mumkin. Rossiyadagi juft obyektli konstruksiyalarda neytral so‘z buyrug‘i - “**IO**(indirect object – vositali to‘ldiruvchi) **DO**(direct object – vositasiz to‘ldiruvchi)”, bevosita obyekt to‘g‘ridan-to‘g‘ri (Shvedova ed.1995): generative adabiyotlarda ushbu fakt Junghans va Zubatow (1995), boshqalar qatori berilgan. “**DO IO**” ning teskarisi buyrug‘i to‘g‘ridan – to‘g‘ri object yanada aniqroq yoki bilvosita objectdan kamroq bo‘lishi mumkin bo‘lsa, birinchidan, rasm Germaniyadagi taniqli obyektни almashish fenomeniga juda o‘xshaydi. In the DO appears to be more ‘predictable’, i.e. it is more accessible out of two new entities (apparently, the concept of writing ‘preactivates’ the concept ‘letter’ through semantic connections)<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian . Copyright © 2007:. All rights reserved. 10-11-betlar.

Rus tilidagi gap bo‘laklarni modellashtirishda ham ularning birinchi harflari olingan. Предмет(П) – ega, глагол(Г) – kesim, объект(О) – to‘ldiruvchi, модификатор(М) – hol.

For example (Masalan):

a. *Многие мизантропы очень любят животных.* (A+П+A+Г+O) ‘Many misanthropes really love animals.’ (A+S+V+O) *Ко‘plab misantropolar(o‘zlarini chetga oluvchi insonlar, boshqa insonlarga qochishadi ) chindan ham hayvonlarni yaxshi ko‘radilar.*

b. *Сегодня мой начальник отдал свой бутерброд.*(M+A+Г+A+O) *Today my boss gave away his sandwich.* (M+S+V+A+O) *Бугун хо‘jayinim sandwichini berib ketdi.* (H+E+T+K)

Biroq, oldingilarga murojaat qilib, ruscha talqin qilish bo‘yicha tadqiqotlarni boshlayman: Babyonyshev (1996), Bailin(1995, 2003a, 2003b, 2004), Erteschik-Shir va Strahov (2004), Junghanns va Zybatow (1995), King (1995), Kondrashova (1996) Pereltsvaig (2004), Sekerina (1997, 2003), Van Gelderen (2003) boshqalar. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati turli xil nazariy asoslarga ega<sup>1</sup>. Misollar:

*Малчик съел суп* – П+Г+O.

*The boy ate soup.* (S+V+O) *Болла sho‘rva ichdi.* (E+T+K)

*The boy soup ate* – ate soup the boy kabi.

To‘ldiruvchining ikki turi(object –  $I_{O,D}O$ ) oldida pastda berilyapti.

*Мальчик подарил девушке цветы.* S+ V+ $I_{O,D}O$  . *The boy gave girl flowers.* *Болла qizga gullar berdi.* (E+T+T+K)<sup>2</sup>.

Quyida gap bo‘laklarining formal ta’riflari keltirilgan:

Ikkinchi darajali bo‘laklardan ingliz va rus tillarida ko‘proq to‘ldiruvchi(object – O) ishlatiladi. To‘ldiruvchi ega va kesimdan keyin keladi.

To‘ldiruvchi (The object). Ingliz tilida ham vositali va vositasiz to‘ldiruvchilar mavjud. Vositali to‘ldiruvchilar predlogli va predlogsiz vositali

<sup>1</sup> Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian . Copyright © 2007: All rights reserved. 15-bet

<sup>2</sup> Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian . Copyright © 2007: All rights reserved. 17-bet.

to'ldiruvchilarga bo'linadi:

*I have written a letter* (vositasiz to'ldiruvchi – the direct object). *Men xat yozdim.* To'ldiruvchi – object – *a letter – xatni.* (S+V+<sub>D</sub>O) *Я написал письмо* (П+Г+O)

*She gave the student a book* (predlogsiz vositasiz to'ldiruvchi). S+V+<sub>I</sub>O  
*U talabaga kitob berdi.* (E+T+T+K)

Vositali to'ldiruvchi(the indirect object) – object – *the student – talabaga;*  
vositasiz to'ldiruvchi(the direct object) – *a book – kitobni.* Он дала студенту книгу. (П+Г+O+O) yoki (S+V+<sub>I</sub>O+<sub>D</sub>O)

*I have taken a pen from my brother* (predlogli vositali to'ldiruvchi).

*Men akamdan ruchka oldim.*

*Я взял ручку от брата.* (S+V+O+O; П+Г+O+O)

Vositasiz to'ldiruvchi (the direct object – <sub>D</sub>O). Vositasiz to'ldiruvchi o'timli fe'ldagi ish-harakat bevosita o'tuvchi shaxs yoki buyumdir. Vositasiz to'ldiruvchi fe'ldan keyin keladi:

*I received a letter yesterday*(S+V+<sub>D</sub>O+M).

*Men kecha xat oldim.*

*Я получил письмо вчера.*

Model: Subject+verb+direct object+modifier.

*I have bought a book*(S+V+<sub>D</sub>O).

*Я купил книгу*(П+Г+O). *Men kitob sotib oldim*(E+T+K).

Predlogsiz vositali to'ldiruvchi (the indirect object). Ba'zi o'timli fe'llardan keyin ish-harakat yo'naltirilgan to whom? kimga? so'rog'iga javob bo'luvchi ot yoki olmosh keladi. Bunday ot yoki olmoshlar predlogsiz vositali to'ldiruvchilar bo'lib keladi:

*He gave the boy a book*(S+V+<sub>I</sub>O+<sub>D</sub>O). *U bolaga kitob berdi.*

Aniqlovchi (The attribute). Aniqlovchi shaxs yoki buyumning belgisini bildiruvchi gap bo'lagidir. Aniqlovchi odatda otni aniqlaydi, ba'zi hollarda olmoshni aniqlaydi (one olmoshi va some, any, every, no olmoshlaridan yasalgan

olmoshlarni):

1. Aniqlovchi sifat(modellashtirishda: adjective – A; качества – K)dan yasaladi. Modellashtirishda aniqlovchining qaysi soʻz turkumi bilan ifodalangan boʻlsa, oʻsha soʻz turkumi berilgan boʻlib, u aniqlovchi(adjective – modellashtirishda – A) belgisidan keyin pastki qismda beriladi. Masalan:

*I received an important letter yesterday*(S+V+A<sub>A</sub>+O+M).

*Вчера я получил важное письмо*(M+Π+Γ+A<sub>K</sub>+O).

*Men kecha muhim xat oldim*(E+H+A<sub>S</sub>+T+K).

2. Aniqlovchi sifatdosh(the infinitive)dan yasaladi:

*I bought some illustrated magazines*(S+V+A<sub>I</sub>+O).

*Men bir nechta (bezakli) suratli jurnal sotib oldim*(E+A+T+K).

4. Aniqlovchi son(number; modellashtirishda – N)dan yasaladi:

*Two thousand tons of sugar were loaded on the ship yesterday.*

(A<sub>N</sub>+V+M+M) *Kecha kemaga ikki ming tonna shakar yuklandi.*

Hol (Adverbial modifiers). Ish-harakatning qanday va qanday holatda (qayerda, qachon, nima uchun, nega va h.k.) sodir boʻlganligini koʻrsatuvchi gap boʻlagi hol deyiladi. Hol quyidagilarni ifodalaydi (bildiradi):

1. Vaqtni: *She will come soon*(S+V+M).

*Он скоро придет*(Π+M+Γ).

*U tezda keladi*(E+H+K.)

2. Oʻrin-joyini: *I found him in the garden*(S+V+O+M).

*Я нашел его в саду*(Π+Γ+O+M).

*Men uni bogʻdan topdim.* (E+T+H+K)

3. Harakatning qanday sodir boʻlishini: *He spoke slowly.* (S+V+M)

*Он говорил медленно*(Π+Γ+M).

*U sekin gapirdi.*

Ingliz tilida darak gaplarda soʻz tartibiga qattiq amal qilinadi, har bir gap boʻlagining oʻz oʻrni bor. Quyidagi soʻz tartibi ingliz tiliga xosdir:

ega + kesim + toʻldiruvchi + hol: *The buyers (ega) chartered (kesim) a*

*steamer* (to'ldiruvchi) *yesterday* (payt holi)

Aniqlovchining gapda ma'lum o'rni yo'q. U otidan ifodalangan istagan gap bo'lagi bilan kelishi mumkin:

*A steamer of 10,000 tons has arrived at the port*(<sub>a</sub>S+V+M).

*O'n ming tonnali paroxod portga yetib keldi*(<sub>a</sub>E+H+K).

Har bir tilda yozma yoki og'zaki matn alohida segmentlardan iboratdir. Ular sodda yoki qo'shma bo'lishi mumkin. Har qanday tilni o'rganish sodda gaplarni tadqiq etishdan boshlanadi. Har qanday sodda gapda kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol ishtirok etishi mumkin. Ularning qat'iy tartibi buzilsa, tilning sifatiga putur yetadi. Buning uchun gap bo'laklarining tartibi bilan tanishib chiqqan bo'lishimiz kerak bo'ladi.

Tilshunoslik fanini o'qitishda modellashtirish metodi ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va o'zgarishlar jarayonlarini o'rganuvchilar ongida esda qolishini osonlashtirish bilan birga miyadagi ilmiy chalkashliklarni tartiblashga, bir qonuniyatni boshqasi bilan solishtirib farqlay olishga hamda uzoq vaqt ma'lumotni eslab qolishga yordam beradi.

Modellashtirish ikkinchi darajali bo'laklarda ham bosh bo'laklar singari turlari va so'z turkumlari bilan ifodalanishi berib o'tildi. Ushbu modellar ham gap bo'lagi modelining pastki qismida oldinda yoki orqa tarafida berib o'tilgan.

Chet tillari ayniqsa, ingliz va rus tillarida gap bo'laklarining qat'iy tartibi bor. Ushbu tartibni osonroq va tezroq o'rganish va eslab qolish uchun ushbu modellar katta ahamiyatga egadir.

## II bob. O‘ZBEK TILIDAGI GAP BO‘LAKLARI MODELLARI

### 2.1. O‘zbek tilidagi ega va kesimning modellari

Gap bo‘laklarining modellari xorijiy ta’lim va tillarining grammatikasidan o‘rganib chiqilib, turlicha yondashildi. Ba’zi tilshunos tadqiqodchi olimlar aynan ingliz tilidagi qoliplardan foydalangan bo‘lsa, ba’zi tilshunoslarimiz esa, o‘zbek tilida o‘ziga xos modellar ishlab chiqdilar. O‘zbek tilida ham gap bo‘laklarining dastlabki modellari ishlab chiqilgan. Bunda Ra’no Sayfullayeva va Azamat Rahimovlarning ishlari diqqatga sazovordir.

Ra’no Sayfullayeva sodda gapda LSQ – lisoniy sintaktik qolip sifatida beradi. LSQ nutqiy hodisa sifatidagi gapning asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyatini o‘zida mujassamlashtirgan mavhum qurilma sifatida yashaydi. Bu gapning struktur elementi orasidagi munosabatni ifodalab, uning umumiy grammatik ma’nosini mujassamlashtiradi. Nutqda gaplar turli-tuman:

1. *Shavkat kitobni o‘qidi.* 2 *Ortadi sevinchim.* 3 *Farg‘ona, go‘zalsan.* Shuning uchun ularning qoliplari ham turli-tuman bo‘lishi tabiiy. Yuqoridagi *Shavkat kitobni o‘qidi* tipidagi cheksiz gaplar (*Tohir xatni otdi. Munisa uyni supurdi*) uchun (ega+to‘ldiruvchi+kesim), *Sevinchim ortadi* tipidagi cheksiz gaplar uchun (ega+kesim), *Farg‘ona, go‘zalsan* tipidagi cheksiz gaplar uchun (undalma, kesim) qoliplari umumiy. Aytilganlardan ikkita ikki xil xulosaga kelish mumkin:

- 1) qoliplar cheksiz gaplar uchun umumiy;
- 2) bu qoliplarni ham cheksiz ajratish mumkin<sup>1</sup>.

Gap bo‘laklarining qanday so‘z bilan ifodalanganligi — leksik hodisalarning gapda voqelangan (tajallilangan) ko‘rinishi. Masalan, bo‘laklarning ot yoki fe‘ldan ekanligi, leksema yoki frazema bilan ifodalanganligi ham nutqiy sintaktik qurilishni belgilaydi, biroq lisoniy mohiyatga ta’sir qilmaydi. Bunga, deylik, ot bilan ifodalangan bo‘lakni olmosh

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva, G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 331-bet

bilan almashtirish asosida (Nigora maktabga boradi — ega+hol+kesim; U maktabga boradi — ega+hol+kesim) amin bo‘lish mumkin<sup>1</sup>.

Gap aytilgan tajallilardan xoli qilinsa, nisbatan umumiy bo‘lgan [ega + kesim], [ega + to‘ldiruvchi + kesim], [ega + to‘ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to‘ldiruvchi + hol + kesim] kabi qoliplar qoladi. Lekin ushbu beshta gap bo‘lagining, shuningdek, bu gap bo‘lagining bittasi, goh ikkitasi yoki uchtasining tushirilgan holdagi ko‘rinishlari kombinatsiyasidan ko‘plab qolip tuzish mumkin bo‘ladi. Qolipni tiklashning ikkinchi bosqichida yuqorida nosintaktik – gapning lisoniy qurilishiga ta’sir etmaydigan tajallilardan xoli qilingan [ega + kesim], [ega + to‘ldiruvchi + kesim], [ega + to‘ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to‘ldiruvchi + hol + kesim] qolipidagi farqlar nazardan soqit qilinadi. Kesim esa har doim mustaqil so‘z va kesimlik shakllaridan iborat bo‘lganligi bois, uni shartli ravishda “atov birligi+kesimlik qo‘shimchasi” yoki [WPm] (W-inglizcha word, Pm esa predikat va marker so‘zlarining bosh harflari) shartli belgisi bilan belgilaymiz. [WPm] sodda gaplarning eng umumiy belgisi bo‘lib, u aksariyat sodda gapda voqelanadi. Boshqa gap bo‘laklarining birortasi gapda bo‘lmasligi mumkin, lekin kesimning bo‘lmasligi mumkin emas. Lisoniy sathda [WPm] bir necha oraliq ko‘rinishlarga ham ega bo‘ladi<sup>2</sup>.

Har qanday tildagi sodda gaplar tarkibida ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari mavjud bo‘lishi mumkin. Quyidagi modellashtirish xalqaro standardga ko‘ra tuzilgan bo‘lib, gap bo‘laklarini modellashtirish uchun ingliz tilidagi gap bo‘laklari nomlarining bosh harflari olingandir.

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B, Boqiyeva, G. Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 333-bet

<sup>2</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B, Boqiyeva, G. Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 334-bet



I. Ega – gapning zaruriy bo‘lagi bo‘lib, boshqa bo‘laklar bilan grammatik bog‘lanadi, u predmet yoki shaxsni bildiradi. Ega kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Ega uchun S (Subjekt - ega) simvolidan foydalaniladi<sup>1</sup>.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi (Pm) — kesimlik kategoriyasida mujassamlashgan shaxs-son (Sh) ma’nosini muayyanlashtiruvchi gap kengaytiruvchisi: 1. *Elchibek asta o‘rnidan turdi.* (A.Mux).

2. *Biri — sensan, biri — men.* (Oyb.).

3. *Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin.* (H.Olim.).

4. *(Sen) Aytar so‘zni ayt, (sen) aytmas so‘zdan qayt.* (Maqol) Birinchi gapda *Elchibek* so‘zi kesimdagi uchinchi shaxs birlik (nol) kesimlik qo‘shimchasining, ikkinchi gapdagi *biri* so‘zlari *sensan* kesimining ikkinchi shaxs birlik ([ -men]) va *men* so‘zidagi birinchi shaxs birlik ([ -man]), uchinchi gapdagi *o‘lka* so‘zi *bor bo‘lsin* kesimidagi uchinchi shaxs ([ -sin]), to‘rtinchi gapdagi ifodalanmagan *(sen, sen) ayt, qayt* so‘zlari bilan ifodalangan kesimdagi ikkinchi shaxs birlik (nol) kesimlik ma’nosining muayyanlashtiruvchisi, kengaytiruvchisi. Ega gapdagi fikr o‘zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan ko‘rsatilayotgan bo‘lak. Kesimdan axborot (kommunikatsiya) anglashilsa, ega ana shu kommunikatsiya predmetidir. Ega bevosita kesimlik shakli — (Pm)ga bog‘lanayotganligi tufayli, hol va kesim bilan birgalikda, gapning konstruktiv bo‘laklari qatoriga kiradi<sup>2</sup>. Egasiz gap tilimizda chegaralangan bo‘lib, ular egali gapga nisbatan kam. Egali gap esa tilimizning me’yoriy xususiyatidan biri. Chunki gap markazini tashkil etuvchi kesimning tarkibidagi (Pm) (kesimlik kategoriyasi) ning qismlaridan biri shaxs-son ma’nosi bo‘lib, u hamisha o‘zining to‘ldirilishini, muayyanlashtirilishini talab qiladi. Bu esa gaplarning egali bo‘lishini taqozo qiladi. Aytilganidek, o‘zbek tilidagi gaplarning lisoniy strukturasi uch a‘zo (ega, hol, kesim) dan iborat, egali gaplarda ega pozitsiyasi bo‘sh bo‘lmaydi, to‘ldirilgan bo‘ladi. U

<sup>1</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent – “Akademnashr”. – 2011. 34-bet

<sup>2</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B, Boqiyeva, G. Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 347-bet

nutqda esa yuzaga chiqqan hol, yuzaga chiqqan kesim bo'lishi mumkin. Quyidagi ikki gapni qiyoslang:

1. *Men kitobni o'qidim.*
2. *Kitobni o'qidim.*

Har ikkala gap ham [E-N-Pm] qolipi hosilasi bo'lib, ularning kesimidagi (Pm)ga xos shaxs-son qo'shimchalari ega, uning tabiati (qaysi shaxs, son) haqida to'liq axborot berib turibdi. Har ikkala gap uchun ham ega — I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi. Biroq, ulardan birinchisida bu lisoniy to'liqlik (ega pozitsiyasining bo'sh emasligi) nutqda namoyon bo'lgan, ikkinchisida esa nutqiy ehtiyoj bo'lmaganligi tufayli yuzaga chiqmagan. Ko'rinadiki, har ikkala gap ham lisoniy egali, ega pozitsiyasi to'ldirilgan gap qismining hosilasi<sup>1</sup>.

II. Kesim – gapning ham semantik, ham grammatik markaziy bo'lagi bo'lib, gapning yadrosi hisoblanadi, kesimsiz gap shakllanmaydi, u harakat, holat, xususiyat kabilarni anglatadi. Kesim nima qilmoq? nima bo'lmoq? kabi so'roqlarga javob beradi. Kesim uchun P(predicate) (ba'zi tilshunos olimlar ingliz tili modelidan olib, V(Verb – kesim yoki fe'l)) simvolidan foydalaniladi<sup>2</sup>.

Kesimlik kategoriyasi mazmun jihatidan tasdiq-inkor (T), so'zlovchining bayon etilgan fikrga bildirgan munosabati — modallik (M), zamon (Z) va shaxs-son (Sh) ma'nolaridan tarkib topadi (buni qisqacha shartli ravishda T, M, Z, Sh deb belgilaymiz va qulaylik uchun keyingi o'rinlarda ana shu shartli qisqartmalardan foydalanamiz). Bu ma'nolar yaxlit holda voqelangandagina kesimlik kategoriyasi ichki mazmun tomonini namoyon qila oladi. T, M, Z, Sh ma'nolarining har biri alohida-alohida ravishda yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, modal so'zlarda mayl (modallik) ma'nosi bo'ladi. Kishilik olmoshlari va egalik qo'shimchalarida shaxs-son ma'nosi yetakchilik qiladi. Tasdiq-inkor so'zlari (ha, yo'q)da, bo'lishli-bo'lishsizlik (-ma)da tasdiq-inkor ma'nosi yorqin ifodalangan bo'ladi. Payt ravishlari, zamon otlari, shuningdek,

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B, Boqiyeva, G. Qurbonova M. va b.lar. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent – 2009. 351-bet

<sup>2</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent – “Akademnashr”. – 2011. 34-bet

o‘rin-payt kelishigi shakli, ravishdosh va sifatdoshda zamon ma‘nosi ifodalanadi. Lekin bularning barchasi alohida-alohida voqelanish bo‘lib, kesimlik vazifasida yuzaga chiqishidan boshqa holatda yaxlit sistem tabiatga ega bo‘lmaydi. Zero, kesimlik kategoriyasi mazkur alohida olingan kategoriyalarning yaxlitligi (sistemasi)dan iborat. Har qanday tizim—o‘z tarkibiy qismlarining oddiy yig‘indisidan kattaroq butunlik. Chunki T,M,Z,Sh kategoriyalari kesimlik kategoriyasida birlashar ekan, bu butunlik tarkibiy qismlarida avval bo‘lmagan, lekin sistema tashkil etganda tug‘iladigan hodisalarni ham qamrab oladi. Masalan, *o‘tgan yili o‘qimagan odam* birikuvidagi o‘qimagan so‘zshaklining birikuvchisi — *o‘tgan yili* so‘z kengaytiruvchisi (lekin gap bo‘lagi emas). *U o‘tgan yili o‘qimagan* gapidagi *o‘tgan yili* so‘zshakli — gap bo‘lagi (hol). Demak, birinchi qurilmadagi kesimlik kategoriyasi a‘zosi emas, shu boisdan uning birikuvchisi (*o‘tgan yili*) gap bo‘lagi emas. Ammo ikkinchi qurilmada [-gan\ kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lib, uning birikuvchisi gap bo‘lagi. Gap kesimlik tarkibidagina gap bo‘laklarini o‘ziga tobelaydi. Bu uning butunlik tarkibida kasb etgan yoki namoyon bo‘lgan belgisi<sup>1</sup>.

Kesim — tasdiq/inkor, zamon, modallik, shaxs/son (ya‘ni kesimlik kategoriyasi) ma‘no va shakllariga ega bo‘lgan so‘z, gap markazini tashkil qiluvchi bo‘lak. Nutqimizda kesimsiz gap bo‘lishi mumkin emas. Gapda kesim bo‘lmasa, u o‘zbek tili (nutqi) uchun to‘liqsiz gap. Kesim gapning shunday konstruktiv bo‘lagiki, u o‘zini shakllantiruvchi grammatik kategoriya — kesimlik kategoriyasi voqelanishiga ega. Shu sababdan hamma vaqt gapda kesim tarkibi murakkab. O‘zbek tilidagi ayrim gaplarda eganing qo‘llanilishi shart bo‘ladi: 1. *Otam* — *o‘qituvchi*. 2. *Men* — *yahudiy*. (G‘.G‘ul.). Bunda (m) tushirilgan bo‘lib, uning vazifasi ega va kesim birligidan iborat bo‘ladi. Bu turdagi gaplarning kichik kolipi [E-WP] ko‘rinishida. Qolipning bu turi o‘zbek tilining tipologik sintaktik belgisi bo‘la olmaydi. Chunki o‘zbek

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 341-bet

tilidagi gaplarning aksariyati [WPm] minimal qolipi va uning kengayishi asosida(Pm) ma'nosi kesimda mujassamlashgan tasdiq/inkor, modallik/mayl, shaxs/son ma'nolarining yaxlitligidan iborat. Shu bois (Pm)ning me'yoriy ma'nosi ushbu to'rtta grammatik ma'noning majmui sifatida ajratiladi. Shakliy ifodalanishga ko'ra (Pm) o'zbek tilida o'ta rang-barang. Uning nol morfema (*Otam — o'qituvchi*) dan boshlab morfemalar tizmasi bilan (aytmasaydingiz), turli xil bog'lamalar bilan ifodalanishi mumkinligi aytiladi. Kesimning lug'aviy asosi ham nutqda tub, sodda, yasama, qo'shma, qisqartma, erkin so'z birikmasi, turg'un so'z birikmasi, parafraza, frazema, kengaygan birikma, transformatsiyalashgan gaplar kabi struktura jihatidan rang-barang bo'lgan nominativ birlik bilan ifodalanishi mumkin<sup>1</sup>.

Kesimlikdagi atov birligi vazifasida barcha mustaqil so'z turkumi kela oladi. Shunga ko'ra, kesimlarni umumlashtirib, ism (ot, sifat, son, ravish, taqlid olmosh)li va fe'l (fe'l, olmosh)li kesimlarga ajratish mumkin. Ism bilan ifodalangan kesimlar<sup>2</sup>.

Kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishini modellashtirishda kesimdan keyin turkumning birinchi harfi kichik harfda pastki qismda berishni taklif qildik. Avvalgi gap bo'laklarini modellashtirishda ushbu jihatlar hisobga olinmagan edi. Masalan:

Ot(modeli – O): *Qarg'a nima deyotganini bilmaymiz, chunki u qarg'a, biz — odam.* («Husnobod») (odam - K<sub>O</sub>) *O'zbekistonning madaniy markazi — Samarqand.* (Samarqand - K<sub>O</sub>)

Sifat(modeli – Sf): *E taqsir, qissamiz uzun.* (Oyb.) (uzun – K<sub>Sf</sub>) *Onam men uchun hammadan yaxshi.* (yaxshi - K<sub>Sf</sub>)

Son(modeli – S): *Ikki karra ikki — to'rt.* (to'rt – K<sub>S</sub>) *Ikki o'n besh - bir o'ttiz.* (o'ttiz - K<sub>S</sub>)

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 346-bet

<sup>2</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 346-bet

Izoh: sifat va sonning birinchi harflari s bo‘lganligi uchun son uchun - s, sifat uchun - sf harflari bilan belgilaymiz.

Ravish(modeli – R): *O‘zlashtirishing — yodaki.* ( yodaki - K<sub>R</sub>)

Taqlid(modeli – Ts): *Hamma tomon g‘ovur-g‘uvur.* ( g‘ovur-g‘uvur - K<sub>Ts</sub>)

Modal(modeli – Ms): *Tinchlik yo‘q* (yo‘q – K<sub>Ms</sub>)

Olmosh(modeli - Ol): *Sen — mensan-u, men — senman, qissamni bayon etsam.*(mensan – K<sub>Ol</sub>, senman – K<sub>Ol</sub>)

Fe‘l bilan ifodalangan kesim: *Maqsadim — o‘qimoq.* (E+K<sub>F</sub>)

Kesim tuzilishiga ko‘ra sodda, murakkab va tarkibli bo‘ladi. Sodda kesim bir mustaqil so‘z bilan ifodalanadi: 1. *Sen bahorni sog‘inmadingmi?* (A.Orip.) Murakkab kesim so‘z birikmasi holdagi kengaygan so‘z bilan ifodalanadi: 1. *Bu kun biz uchun og‘ir kun.* 2. *Sherzod yulduzni benarvon uradigan yigit*<sup>1</sup>. O‘zbek tili sintaktik qurilishi mohiyatini idrok etish turli sintaktik yo‘nalishlarga xos xulosalarni umumlashtirish asosidagina amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Sistem tilshunoslikda til va nutq hodisalarini farqlash asosiy mezon hisoblanadi<sup>3</sup>. Dialektik qonuniyatlarga ko‘ra til aloqa-aralashuv vositasi sifatida umumiylik, nutq esa xususiylik belgisidir<sup>4</sup>. Har bir inson o‘z nutqini til orqali ifoda etadi. Shu sababdan bunday birliklarning farqli jihatlari aniqlab olinadi. Chunoschi, fonema, leksema, morfema, qolip til birliklarini tashkil etsa, harf, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap, mikrotekst va makrotekstlar nutq birliklarini tashkil etadi<sup>5</sup>.

Ko‘plab lingvistik tadqiqotlarda predikativlikni gap bilan aloqadorlikda, ya‘ni gapning gapligini “ega-kesim” va “predikativlik” munosabatida o‘rganib kelishgan<sup>6</sup>. Ma‘lumki, gap nutqiy hodisa sifatida g‘arb tilshunosligida ancha oldinroq atroflicha o‘rganilgan va ta‘riflangan edi. Ko‘rib o‘tganimizdek, bu

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 346-bet

<sup>2</sup> N.Yuldosheva. “Yig‘iq gapning formal-funksional talqini” f.f.n. diss... T., 2010

<sup>3</sup> Nurmonov A.N. Lisoniy birliklarda umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi//O‘zbek tili va adabiyoti. - 1995. -№ 1. 42-46-betlar

<sup>4</sup> Rahimov Y. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 1994. 243-bet

<sup>5</sup> Nurmonov A.N. Tilni sistemali o‘rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari//O‘zbek tili va adabiyoti, - 1988. -№ 5. 22-26-bet

<sup>6</sup> Shodmonov E., Abdurahmonov X. So‘z-gap va to‘liqsiz gap//Toshkent ped. ins-ti ilmiy asarlari. T. 87. –1972. 37-53-bet; G‘ulomov A.F., Asqarova M.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. 309-bet

kategoriya maxsus morfologik kategoriya hisoblanadi va uning ahamiyatli jihatlari formal-funksional tahlil mualliflari “Tezislar”ida ajratib ko‘rsatilgan<sup>1</sup>. Mantiqiy “subyekt + predikat” (ya’ni predikatsiya, predikativ aloqa) ning mohiyatan “ega+kesim” (gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatdan farqlanishi. Qiziq tomoni shundaki, [WPm] qolipida [W] ham, [Pm] ham nisbatan mustaqil bo‘lib, ular o‘zaro faqat gap markazi mavqeida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil mavqelarda kelishi mumkin. Biz bundan xulosa qila olamizki, [Pm] – ya’ni kesimlik gapning negizini, asosini tashkil etadi. Demak, potensial gap mavqeini istagan [W] ga shu [Pm] beradi. [W] ning o‘zi esa kesimlikka nisbatan befarqdir. Chunonchi, [o‘quvchi] leksemasini olib ko‘raylik. Bu leksema gapda qanday mavqeda kelishiga nisbatan tamoman befarqdir; grammatik shakllanishiga ko‘ra bu leksema gapda har xil o‘rinni egallashi mumkin. Ta’kidlaganimizdek, u (W tush. kel.) ning hosilasi sifatida o‘quvchini shaklida gapda vositasiz to‘ldiruvchi, yoki (W qar. kel) ning hosilasi sifatida qaratqichli aniqlovchi mavqelarida kela oladi. Shuningdek, [WPm] qolipining hosilasi sifatida *o‘quvchiman, o‘quvchi emasman, o‘quvchi edim, o‘quvchi bo‘lsam* v.h. kabi minglab shakllarda kesim mavqeida ham kelishi mumkin. Demak, bunday gaplar qolipi [Pm] ning [W] ga nisbatan alohidaligi va kesimning kesimligi [Pm] bilan belgilanishi haqida muhim xulosa chiqarishga imkon beradi. Ya’ni gapni lisoniy bosqichida – umumiy qolip bosqichida shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi yoki [Pm]dir<sup>2</sup>.


Ma’lumki, gapning eng kichik lisoniy qolipi [WPm] ramzi bilan berilib, gapning umumiy lisoniy mohiyati sifatida tavsiflandi. Bunda o‘zbek nutqida qo‘llanadigan aksariyat gapning eng umumiy belgilari mujassamlashgan. Nutqdagi barcha gaplarning kesimdan boshqa bo‘laklari olib tashlansa ham, u gap bo‘la

---

<sup>1</sup> Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков: Тез. формально-функцион. исслед.//Сов. тюрк. -1984. -№ 5. – С. 5-10.Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Халияров Х.Х., Махмудов Н.М. Нурманов Н., Сайфуллаева Р.Р. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса//Сов. тюрк. -1988. -№ 4. – Б. 3-8.

<sup>2</sup>Nabiyeva M. Kesim kengaytiruvchilarini aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o‘rni. Akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Qarshi – 2007. 27-bet.

oladi. Biroq nutqiy gaplarning lisoniy sathda bu umumiylik (WP<sub>m</sub>) dan quyiroqda joylashgan boshqa umumiyliklari ham bor. Gapning minimal qolipi [WP<sub>m</sub>] ega va hol bilan kengaytirilsa, u quyidagi ko‘rinishni oladi:



Bu gapning maksimal qolipi hisoblanadi<sup>1</sup>. Boshqa barcha so‘z kengaytiruvchilari (to‘ldiruvchi va aniqlovchilar) o‘zi ergashib kelayotgan bo‘laklar bilan bir butun holda bitta bo‘lak (ega, kesim, hol) bo‘lib keladi. Masalan, *Men paxtani zavq bilan terdim* (Men - ega), (*paxtani* – to‘ldiruvchi), (*zavq bilan* – hol), (*terdim* – kesim). Lisoniy sintaktik qolipi quyidagicha bo‘ladi. – E+H+K. O‘zbek tilidagi gaplarning lisoniy sathdagi eng kichik qurilish qolipi asosan [WP<sub>m</sub>] shaklida bo‘lsa, Hind-Yevropa tillarida gapning minimal qolipi asosan [E-WP] ko‘rinishida. Bu esa bu tillar orasidagi asosiy tipologik va milliy farqlardan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>Nabiyeva M. Kesim kengaytiruvchilarini aniqlashda sintaktik pozitsiyaning o‘rni. Akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Qarshi – 2007. 27-bet.

## 2.2. O‘zbek tilidagi ikkinchi darajali bo‘laklarning modellari

Ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘zbek tilida modellashtirishida harf belgisi bilan belgilashga Ra‘no Sayfullayeva kam to‘xtalgan. Shu sababli misollar ushbu kitobdan olingan bo‘lsa-da, modellarni Azamat Rahimovning ishlaridan olib, modellashtirdik. Olim esa gap bo‘laklari modellarini xorijiy til(ingliz) tili modellaridan foydalangan. Ba‘zi joylarda esa o‘zbek tilidagi modellar ham kiritilgan.

To‘ldiruvchi(Azamat Rahimov asarida ingliz tilidagi modellashtirish qolipidan olingan, ya’ni – O object) deb predmetni bildiruvchi va ma’no jihatidan kesimni to‘ldiruvchi gap bo‘lagiga aytiladi. Vositasiz (obyektsiz) to‘ldiruvchi kimni? nimani? qayerni? so‘roqlariga, vositali to‘ldiruvchi esa kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim haqida? nima haqida? va h.k. so‘roqlarga javob bo‘ladi. To‘ldiruvchi uchun O (object – to‘ldiruvchi)simvolidan foydalaniladi. *Biz kecha bu kitobni o‘qidik* gapidagi kitobni so‘zshakli bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchini olib ko‘raylik. Ma’lumki, vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish faqat o‘timli fe’lga xos. Shu boisdan vositasiz to‘ldiruvchi kesimlik shakli bilan emas, balki kesim vazifasida ma’no jihatidan o‘timli bo‘lgan fe’lning kelishi bilan bog‘liq. So‘z va gap kengaytiruvchilarini farqlashga yuqorida tasvirlangan mezon asosida yondashadigan bo‘lsak, bu gapdagi to‘ldiruvchini ham so‘z kengaytiruvchisi - o‘timli fe’lning lug‘aviy ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyanlashtiruvchi bo‘lak sifatida baholash lozim. Vositali to‘ldiruvchi ham vositasiz to‘ldiruvchi kabi gapda so‘z kengaytiruvchisi mavqeida bo‘ladi va gap qurilishida mustaqil o‘ringa ega emas. Demak, to‘ldiruvchi ham aniqlovchi kabi so‘z kengaytiruvchisi bo‘lib, gapning qurilishida mustaqil o‘rin egallamaydi, balki gaptarkibiga o‘zi bog‘lanayotgan o‘timli fe’l bilan birga kiradi. O‘timli fe’l gapda qanday mavqeda kelmasin, vositasiz to‘ldiruvchi u bilan bir butunlikni tashkil etib, shu butunlikka nisbatan bo‘lak maqomida bo‘ladi. Boshqacha



aytganda, mazkur gapda to‘ldiruvchi gapning bo‘lagi emas, balki kesimning bo‘lagi — bo‘lak ichidagi bo‘lak. To‘ldiruvchi ko‘pincha, kesim(modeli – V yoki K)ga bog‘lanadi. Lekin to‘ldiruvchi faqat kesimga tobelanib keladi, degani emas. U barcha bo‘laklarni to‘ldirishi mumkin:

1. *Kattani hurmat qil.*

(ingliz tilidan olingan model: O+V) yoki (o‘zbekcha model: T+K)

2. *Kattani hurmat qilishni o‘rgan.*

(ingliz tilidan olingan model: O+O+V) yoki (o‘zbekcha model: T+T+K)

3. *Kattani hurmat qilish – yoshlarning fazilati.*

(inglizcha modellashtirishda: O+S+A+V) yoki (o‘zbekcha modeli: T+E+A+K)

4. *Bolalarimizni yoshligidan kattani hurmat qilishga o‘rgatishimiz zarur.*

(inglizcha model: O+M+O+O+V) yoki (o‘zbekcha model: T+H+T+T+K)

Ko‘rinadiki, vositasiz to‘ldiruvchi 1-gapda kesimga, 2-gapda vositasiz to‘ldiruvchiga, 3-gapda egaga, 4-gapda vositali to‘ldiruvchiga, bog‘lanib kelyapti. Demak, to‘ldiruvchi fe‘l bilan ifodalangan barcha gap bo‘laklariga bog‘lanadi va gap tarkibiga o‘zi bog‘langan bo‘lak bilan yaxlitligicha kiradi. Bu kengaytiruvchilar o‘zi birikayotgan so‘z bilan so‘z birikmasi hosil qiladi, biroq gap qurilishi bilan bevosita aloqador emas<sup>1</sup>.

Aniqlovchi otning belgilarini tushuntiruvchi, izohlovchi gap bo‘lagidir. Aniqlovchi predmetning belgisini bildirgan holda qanday? kimning? nimaning? nechanchi? qancha? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Aniqlovchi kompyuter lingvistikasida gap bo‘lagi sifatida ajratilmaydi, chunki u gapda boshqa bo‘laklarga tobelanib keladi, u gap uchun nozaruriy (fakultativ, obligator emas) bo‘lak hisoblanadi. Gap tarkibidagi mustaqil so‘zlik mavqeini saqlagan barcha so‘zlarning ma‘noviy qobiliyati asosida kengaya olishini va shu qobiliyatni namoyon qilishini ta‘minlovchi lug‘aviy birlik so‘z kengaytiruvchisi deyiladi. So‘z kengaytiruvchisi gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo‘lmay,

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 338-bet

ma'lum bir soʻzning maʼnosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador boʻlgan hodisa. Soʻz kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap boʻlagi — gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning maʼlum bir boʻlagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi — kesim tarkibidagi kesimlik qoʻshimchasi bilan bogʻlanmaydi. Aniqlovchi ana shunday boʻlakning usullik koʻrinishi. Masalan, *Bu kitobni kecha oʻqidik* gapidagi bu aniqlovchisi toʻldiruvchi (*kitobni*)ga tobelangan va gap tarkibida toʻldiruvchi bilan bir butun holda kesimga bogʻlanadi.

Aniqlovchi gapdagi barcha boʻlaklarni kengaytirishi mumkin. Aniqlovchi gap boʻlagi sifatida emas, balki boshqa gap boʻlaklarning kengaytiruvchisi qilib berilganligi sababli kichik harfda boshqa gap boʻlagi oldida berilmoqda. Masalan:

a) eganing kengaytiruvchisi: *Aʼlochi Tohir keldi.* (inglizcha modeli: aS+V) yoki (oʻzbekcha modeli: aE+K)

b) kesimning kengaytiruvchisi: *Sen ilgʻor oʻqituvchisan.* (inglizcha modeli: S+aV) yoki (oʻzbekcha modeli: E+aK)

d) holning kengaytiruvchisi: *U azim shaharda yashaydi.*(inglizcha modeli: S+aM+K) yoki (oʻzbekcha modeli: E+aH+K)

e) toʻldiruvchining kengaytiruvchisi: *Aqlli bolalarni sevaman.* (inglizcha modeli: aO+V) yoki (oʻzbekcha modeli: aT+K)

Soʻz kengaytiruvchisi nutqda kesim vazifasida kelgan soʻzga mansub boʻlishi ham mumkin. Masalan, *Gulnora — isteʼdodli talaba.* Bu holatda ham soʻz kengaytiruvchisi gap qurilishiga oʻzi ergashib kelgan soʻz bilan birga kirib keladi va gap qurilishida alohida oʻrin egallamaydi. Yuqoridagi gapda isteʼdodli soʻzi gap kesimiga tobelanib kelganday koʻrinadi. Aslida esa u gap kesimiga emas, balki mana shu gapdagi kesim vazifasida voqelangan talaba soʻziga tobelanib kelmoqda. Shuning uchun gapning kesimi vazifasida kelgan soʻzning leksik-semantik valentligi bilan bogʻliq boʻlgan kengaytiruvchi boʻlak ham soʻz kengaytiruvchisi.

Hol(modeli ingliz tilidan olingan – M, o‘zbekchasi olinsa – H) kesimda ifodalanayotgan harakat yoki holatning o‘rni, payti, maqsadi, sababi va bajarilish sharti kabilarni bildiruvchi gap bo‘lagidir. U qanday? qay tarzda?qayerda?qachon? nima sababdan? nima uchun? kabi so‘roqlarning biriga javob beradi. Hol uchun M(modifier - hol) simvolidan foydalaniladi<sup>1</sup>.

Holning gap qurilishidagi o‘rni. Hol ega kabi gap kesimidagi kesimlik shakllari — (Pm)ning ma’noviy xususiyatini muayyanlashtiruvchi, oydinlashtiruvchi bo‘lak, ya’ni gap kengaytiruvchisi sanaladi. Quyidagi gaplarni qiyoslaylik:

1. *Jamshid ishladi.* (inglizcha model: S+V yoki o‘zbekcha modeli: E+K)

2. *Jamshid kecha ishladi.* (inglizcha model: S+M+V yoki o‘zbekcha model: E+H+K)

Keltirilgan gaplardagi *ishladi* va *ishlaydi* so‘zshakllari gap kesimi vazifasida kelgan bo‘lib, boshqa bo‘laklar ana shu markaziy bo‘lakning muayyanlashtiruvchilari:

(Jamshid) so‘zi har uchala gapda ham kesimdagi (Pm)ning shaxs-son, (kecha), (ertaga) so‘zlari esa payt ma’nosini muayyanlashtirgan. Demak, ma’lum bo‘ladiki, gap qurilishida gap markazidagi kesimlik kategoriyasi ma’nosi bilan uzviy bog‘langan gap kengaytiruvchisi payt holi. Payt holi kesimga bog‘lanar ekan, undagi lug‘aviy qism ma’nosi bilan emas, balki kesimlik kategoriyasi tarkibidagi zamon ma’nosi bilan bog‘liq ekanligi ot-kesimli gaplarda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, ot leksema o‘z semantik valentligini to‘ldiruvchi har xil aniqlovchilar bilan erkin birikuv hosil qila oladi: *a’lochi talaba, shaharlik talaba, o’nta talaba* va h.

O‘rin holi ham so‘z kengaytiruvchisi emas, balki gap kengaytiruvchisi ekanligi bunday vazifada keluvchi so‘zlarni gapda va gapdan tashqarida SB hosil qilish uchun ot-leksemaga tobelab ko‘rish asosida amin bo‘lish mumkin.

---

<sup>1</sup>Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent – “Akademnashr” – 2011. 34-bet

Qiyoslang: 1. *Qishloqda muallim, zavodda ishchi.* (inglizcha model: M+V,M+V yoki o‘zbekcha modeli: H+K,H+K)

2. *Halim shaharda o‘qituvchi, G‘afur zavodda ishchi.* (inglizcha model: S+M+V,S+M+V yoki o‘zbekcha modeli: E+H+K, E+H+K)

Ko‘rinadiki, birinchi guruh birikuvlar g‘ayrime‘yoriy, ikkinchi guruh birikuvlar esa o‘zbek nutqiga xos me‘yoriy qurilma ekanligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Demak, o‘rin hollari payt hollari kabi gap kengaytiruvchilaridir. Endi holning boshqa turlariga diqqat qilamiz:

1. *Ilgari ikkalamiz birga talaba edik.* (inglizcha model: M+S+V yoki o‘zbekcha modeli: H+E+K)

2. *Bu payt sen kabi o‘qituvchiman.* (inglizcha model: M+M+V yoki o‘zbekcha modeli: H+H+K)

3. *Shu boisdan dadam ishchi edi.* (inglizcha model: M+S+V yoki o‘zbekcha modeli: H+E+K)

Birinchi gapda *birga* so‘zi ravish, ikkinchi gapda *sen kabi* o‘xshatish, uchinchi gapdagi *shu boisdan* so‘zshakli sabab holi<sup>1</sup>.

Holning gap kengaytiruvchisi ekanligini asoslash uchun ot- kesimli gaplardan foydalandik. Bunda holning gap kengaytiruvchigi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Hol gapning bevosita konstruktiv uzvi emas. Chunki holsiz ham gap tashkil topaveradi. Demak, hol kesimdan quyi mavqeni egallaydi. Ko‘pincha holning gap tarkibiga kiritilishi (Pm) ma‘nolari bilan zich bog‘lanmaydi. Shu boisdan hol egadan ham quyi mavqeni egallaydi. Chunki nutqiy gaplarda kesim orqali egani tiklash holni tiklashdan ancha qulay. Ifodalanmagan holni tiklash qiyin. Ammo shuni ta‘kidlash lozimki, ba‘zan kesimning (W)si maqomida o‘rin, payt, sabab, maqsad va boshqa ma‘noli aktantlar bilan kuchli aloqada bo‘ladigan leksema yuzaga chiqqanda, gapning yuza qolipida hol egadan ko‘ra zarurroq faoliyatga ega bo‘ladi. Masalan, yurish fe‘llari

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009. 355-bet

(bormoq, kelmoq, etmoq, ketmoq) kesim vazifasida kelganda gapda o‘rin hollarining ishtirok etishi zaruriyati kuchayadi: *Uyga bordi. Shahardan keldi. Maktabga ketdi. Manzilga yetdi.* Bu albatta, kesimlik kategoriyasi birikuvchanligi bilan emas, balki kesim vazifasida kelayotgan fe‘lning ma‘noviy xususiyati bilan belgilanadi.

Demak, holning gap qurilishidagi zaruriy bo‘lak darajasiga ko‘tarilishi kesimdagi (W)ning muayyanlashish ehtiyoji bilan belgilanadi. Hol gapning konstruktiv bo‘laklari sifatidagi kesim va egadan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Holning ma‘noviy turlari haqida. Hol nutqda gapdan anglashilgan mazmunning, kesim ifodalagan ish-harakat, holat, voqea-hodisaning o‘rni, payti, tarzi, miqdor-darajasi, sababi, maqsadi, natijasi, sharti (qatorni yana davom ettirish mumkin) kabi ma‘noni ifodalaydi.

Boshqa gap bo‘laklariga nisbatan holning ma‘noviy turlari nisbatan ko‘proq. Lekin, olaylik aniqlovchining rang-tus aniqlovchilari, xususiyat aniqlovchilari, hajm-shakl aniqlovchilari kabi turlarini ajratish grammatik, sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan mantiqsiz bo‘lgani kabi, holning ma‘noviy turi ham gap sintaktik qurilishi uchun daxlsiz. Shuningdek, ko‘p hollarda o‘rin- payt (*Botir urushda bilinadi* (S<sub>+p</sub>M+V), sabab va maqsad (*O‘qish uchun Toshkentga keldi* (M<sub>+p</sub>M+V), ravish va miqdor holini (*Isroil qayta-qayta o‘qidi*(S+M+V)) farqlash qiyin. Chunki hol va so‘zlararo munosabat nutq sharoiti, voqea-hodisaning tabiatiga va so‘zlovchining maqsadiga mos ravishda turlicha voqelanishi mumkin. Lisoniy sintaktik qolipning asosiy xususiyatidan biri shuki, uni to‘ldiradigan nutqiy birlik bir a‘zo huquqiga ega va har qanday katta-kichiklikda bo‘lishi mumkin.

Holning ifodalanishi. Holning so‘z turkumlari bilan ifodalanishida Azamat Rahimov taklif etgan modellashtirish metodidan foydalanildi. Azamat Rahimov modelning xalqaro modelidan foydalangan. Azamat Rahimov so‘z turkumlarni alohida gap bo‘laklarni alohida modellashtirgan edi. Biz esa ushbu modellardan

foydalanib, gap bo‘laklarning so‘z turkumlari bilan ifodalanishini berdik. Hol barcha mustaqil so‘z turkumi bilan ifodalanadi:

- 1) fe‘l(verb – V): *Shalola shoshilib gapirdi* (modeli: S+M<sub>V</sub>+K) .
- 2) ot(noun – N): *Uydan chiqarib ketdi* (modeli – M<sub>N</sub>+V);
- 3) sifat(adjective – A): *U yaxshi o‘qiydi*; (modeli – S+M<sub>A</sub>+V)
- 4) son(numberative – Nm): *Bir keldi, bir ketdi*; (M<sub>Nm</sub>+V, M<sub>Nm</sub>+V)
- 5) olmosh(pronoun – Pn): *Bunda ari keltiradi bol*, (modeli – M<sub>Pn</sub>+S+V+O)
- 6) ravish(adverb – Ad) : *Yig‘ilish kech tugadi*. (S+M<sub>Ad</sub>+V)

Gap bo‘laklarini o‘rganish, umuman, gap to‘g‘risidagi ta’limotning ajralmas bir qismidir. Chunki gapning qismlarga ajratilishida shu gapda ifoda qilingan fikrning qismlarga ajratilishi o‘z aksini topadi. Gapning har bir bo‘lagi gapda ifoda qilingan fikrning tinglovchiga yetkazishda alohida o‘rin tutadi. Demak, gap bo‘lagi so‘z turkumi bilan o‘zaro zich aloqada bo‘lsa ham, ma’no va vazifa jihatdan boshqa-boshqa birliklardir. Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida shakllangan sintaktik nazariyalar o‘zbek tili grammatik qurilishini turli tomondan o‘rganib, uning mohiyatini ochish borasida o‘z tadqiq metodologiyasi va usullari asosida ulkan ishlarni amalga oshirdilar va oshirmoqda. Qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar garchi ziddiyatli bo‘lsa-da, ular obyektiv serqirralik va ziddiyatlilik tabiatiga ega bo‘lgan sintaktik qurilishning turli tomonlarini yoritishi nuqtai nazaridan bir-birini to‘ldiruvchilar sifatida o‘ta qimmatli.

Xullas, lisoniy sintaktik qolip(LSQ)da sodda yig‘iq gap ega va kesimdan (WPm) bo‘lsa, yoyiq gaplarda hol va to‘ldiruvchi ishtirok etadi. Aniqlovchi esa bo‘lakning bo‘lagi sifatida ushbu qatorga kirmaydi. Qoliplashtirish sistem struktur tilshunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu qoliplashtirish tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ochadi va o‘rganishni tez va osonlashtiradi.

### **III BOB. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA GAP BO'LAKLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI TUSHUNTIRISH**

#### **3.1. Ega va kesimni tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida aynan modellashtirish metodidan hozirda foydalanilmayapti. Aynan shu sababdan tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlaridagi atama va tushunchalarni modelini yaratish va o'zbek tilini o'rganishda bir qancha qulayliklar yaratish maqsadida ushbu metod ishlab chiqildi. Ushbu modellashtirish boshqa fanlarda faol qo'llanilgan tilshunoslikda endi grammatikani o'rganish uchun metod sifatida olindi. Sintaksis uchun aynan biz hozir o'rganayotgan gap bo'laklarini o'rgatishda modellashtirish metodidan foydalanish uchun ta'lim bosqichlaridagi gap bo'laklari o'rganilib qulay va oson modellar ishlab chiqildi. Gap bo'laklarining o'zbek tilidagi lotin alifbosi bo'yicha bosh harflari olindi. Shu paytgacha bo'lgan ilmiy tilshunoslik adabiyotlari va tadqiqotlarda gap bo'laklarini modellashtirishda faqat gap bo'laklarining o'zi berilgan edi. Ushbu ishda esa, yana gap bo'lagining tuzilishiga ko'ra va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligiga ko'ra turlarini ham berishga harakat qilindi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfidan gap bo'laklari mavzusi o'tila boshlanadi. Ushbu sinfda gap bo'laklari haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Tabiiyki, ushbu mavzu o'quvchilar salohiyati hisobga olinib, qoidalashtirilgan. Qoidalar sodda, ixcham va tushunarli tarzda ifodalangandir.


Hozirgi zamonaviy ta'limda biz e'tirof etayotgan gap bo'laklarini o'qitishda modellashtirish metodidan foydalanish uchun ushbu sinfga sodda qilib tushuntirishimiz kerak bo'ladi.

Inson dastlab o'zini qurshab turgan olamni ayrim uzvlarga ajratadi. Olamning ajratilgan bu bo'lagi go'yo avtonom, sifatiy ajratilgan holda tasavvur qilinadi. Bizga ma'lumki modellashtirishda fikriy va tabiiy modellar mavjud. Fikriy modellarni yuqori yoshdagi o'quvchilar yaxshi qabul qiladi. Chunki ular fikrlash doirasi kengaygan bo'ladi. Lekin 5-sinf o'quvchilarning fikrlash doirasi unchalik

kengaymaganligi sababli ularga mavzuni tushuntirishda tabiiy modellardan foydalanish yaxshi samara beradi. Tabiiy modellarga turli xil buyum, jism, ular bilgan narsalarning tasvir, suratlari yoki shu kabilarning kichraytirilgan nusxasi kiradi. Shularni hisobga olib, biz ushbu sinf o‘quvchilari uchun modellarni turli xil rasmlar orqali ham tushuntirishga harakat qildik.

Ular quyidagicha ifodalandi:

Tasavvurimizda gap bo‘laklarini osmonda ko‘rinib turgan jismlarga o‘xshatsak, biz uchun eng keraklisi quyosh va oy hisoblanadi. Kesim gap bo‘lagini Quyoshga o‘xshatsak, u bir o‘zi bemaolol yer yuzini yoritadi.



Kesim gap bo‘lagi uchun 5-sinf darsligida 2soat ajratilgan. Kesim ham bir o‘zi gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi. Shaxs-son ma’nolarini ifodalab, nima qil (-di, -yapti va boshq.) ? nima bo‘l (-di, -yapti va boshq.) kimdir? nimadir? qayerdir? so‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘zlar gapda kesim vazifasini bajaradi. Kesim gapning mazmuniy markazidir. U boshqa bo‘laklarsiz ham gap bo‘la oladi. Masalan: *Yaxshimisiz? Keldi<sup>1</sup>.*

Agar modellashtirishda yuqorida aytganimizdek harflardan foydalansak, lotin harf, so‘zning birinchi harfi olinadi, u bosh harfda beriladi, ya’ni – K.


Quyoshga yordamchi sifatida oy ham yer yuzini yoritishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – “Ma’naviyat” 2015. 40-bet



Demak oy kesimdan keyin turuvchi ega gap bo‘lagi deb tasavvur qilamiz. Lekin oy quyoshsiz yer yuzini yoritilmaganidek, ega ham yolg‘iz holda gap bo‘la olmaydi.



Kesim bilan bog‘lanib kim? nima? qayer? singari so‘roqlarga javob bo‘ladigan bo‘lak egadeyiladi. Ega gap bo‘lagini ham harf yordamida ham modellashtirdik. Birinchi harfi olindi, modeli –E.

Masalan: *Bulbul sayradi.*(E+K)<sup>1</sup>.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf ona tili darsligida gap bo‘laklari chuqurroq berilgan. Gap bo‘laklari avvalgi bosqichlarda dastlab bosh bo‘laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar(to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ga ajratilgan bo‘lsa, yuqori bosqichda kesim, ega, ikkinchi darajali bo‘laklar: to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo‘laklariga bo‘linib, ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi va turlari berilgan.

Ega gap bo‘lagi 8-sinf ona tilida 2 soatni o‘z ichiga oladi. Ega ushbu darslikda quyidagicha ifodalangan. Gap kesimining qo‘shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma‘nosini aniqlashtiruvchi bo‘lak ega(modellashtirishda – E)dir. Ega, asosan, kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi, egalik va ko‘plik shakllarini qabul qilishi mumkin. Ega quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi(qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘lsa, shu so‘z turkumining birinchi harfi pastki qismda ega gap bo‘lagi belgisidan keyin berildi):

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – “Ma‘naviyat” 2015. 38-bet

1. Ot (modeli – O) bilan: *Aziz o‘sha kitobni o‘qidi.* ( $E_O+A+T+K$ )
2. Olmosh (modeli - Ol) bilan: *Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin.* (*Maqol*) (gapning qurilish modeli  $-E_{Ol}+T+K$ ,  $T+E_{Ol}+K$ )
3. Son(modeli – S) bilan: *Ikkalasi ham chiqib ketishdi.* (*M. Ism.*) (gapning qurilish modeli  $-E_S+K$ )
4. Sifatdosh(sifatdoshning modeli – Sfd qilib olindi) bilan: *O‘qigan o‘qdan o‘zar, o‘qimagan turtkidan shoshar.* (*Maqol*) ( $E_{Sfd}+T+K$ ,  $E_{Sfd}+T+K$ )
5. Sifat(modeli – Sf) bilan: *Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin.* (*Qo‘shiqdan*) ( $E_{Sf}+K$ ,  $E_{Sf}+K$ )
6. Harakat nomi(modeli – Hn) bilan: *O‘qish jafoli, keti vafoli.* (*Maqol*) ( $E_{Hn}+K$ ,  $E+K$ )
7. Taqlid so‘z (modeli - Ts) bilan: *Qars ikki qo‘ldan chiqadi.* (*Maqol*)<sup>1</sup> (gapning qurilish modeli  $-E_{Ts}+A+T+K$ )

Kesim 8-sinf ona tilida 8 soatni o‘z ichiga oladi. Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir, ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko‘rsatadi<sup>2</sup>. Kesimning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishi va tuzilishiga ko‘ra turlari ham ifodalangan bo‘lib, ularning barchasi modellashtirib qo‘yildi. Ushbu darslikda kesim quyidagicha ifodalangan: Kesim gap markazi bo‘lib, u tasdiq-inkor(t-i), zamon(z), mayl(m), shaxs-son(sh-s) ma’nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog‘lanadi. Kesim (modeli – K) nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? (ba’zan nechanchi? qanday?) kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Kesim qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalanishiga ko‘ra ikki xil: fe’l kesim( $_F K$ ), ot kesim( $_O K$ ) bo‘ladi. Ushbu turlarini belgilashda model kesim belgisidan oldin, pastki qismda berildi.

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 68-bet

<sup>2</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 56-bet

Kesim tuzilishiga ko‘ra ikki xil: sodda kesim va murakkab kesim bo‘ladi<sup>1</sup>. Sodda kesim birgina so‘zdan iborat bo‘ladi. Murakkab kesim esa ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘ladi. Buni quyidagi model bilan tushuntiramiz. Sodda kesim – $K^S$ , murakkab kesim – $K^M$ . Tuzilishiga ko‘ra turini ifodalaganimizda model harfi kesim belgisidan so‘ng tepa qismda berildi. Kesim barcha mustaqil turkum so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin. Shunga ko‘ra, fe‘l kesim(modeli –  $_F K$ ) va ot kesim(modeli –  $_O K$ ) ajratiladi.

Kesimning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra turlarini quyidagicha modellashtirdik: Fe‘l kesim(modeli –  $_F K$ ) va ot kesim(modeli –  $_O K$ ). Bunda so‘z turkumining birinchi harfi olinib, kesim belgisidan oldinda pastki qismda berilmoqda. Fe‘l kesim hamisha sof fe‘l – fe‘lning tushlangan shakllari bilan ifodalanadi<sup>2</sup>:

*Bolalar muzqaymoqni juda yoqtiradilar*

(gapning qurilish modeli –  $E+T+H+_F K^S$  – Ega+ To‘ldiruvchi+Hol+fe‘l kesim sodda).

*Gullarga burkanib bahor kirib keldi*( $H+E+_F K^M$ ).

Fe‘l kesimlar quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof fe‘l kesimlar:

*Men maktabga boraman;*

(gapning qurilish modeli –  $E+H+_F K_S$  yoki: ega+Hol+fe‘l kesim sodda)

b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim:

*Uy egasi dasturxonni mehmon oldiga yozguncha, Fotima ham barkashni olib keldi.*

( $H+E+T+_F+_R K_M$  – hol+ega+to‘ldiruvchi+ravishdosh fe‘l kesim murakkab)

d) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *It hurar – karvon o‘tar.* ( $E+_F+_S K_S$  –  $E+_F+_S K_S$  - ega+sifatdoshli fe‘l kesim sodda – ega+sifatdosh fe‘l kesim sodda)

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 57-bet

<sup>2</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 57-bet

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan, shuningdek, fe'ning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim(modeli –  $O_K$ ) deyiladi. So'z turkumi belgilanganda, o'sha so'z turkumining birinchi harfi olinib, kesim belgisidan so'ng, pastki qismda, kichik harfda berilmoqda. Ot kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

a) ot(modeli –  $O$ ; kesim belgisidan keyin pastki qismda berilyapti) bilan: *Yaxshi ro'zg'or – jannat, yomon ro'zg'or – do'zax. (Maqol)* ;

( $A+E+O_K$ ,  $A+E+O_K$ )

b) sifat(modeli –  $sf$ ) bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (Maqol)* ; ( $E+O_K$ ,  $E+O_K$ )

d) son(modeli –  $s$ ) bilan: *Birniki – mingga, mingniki – tumanga. (Maqol)* ( $E+O_K$ ,  $E+O_K$ ) e) olmosh bilan: *Maqsadim – shu. (E+ $O_K$ )*.

f) ravish(modeli –  $r$ ) bilan: *Sizdan umidim ko'p;* ( $T+E+O_K$ )

g) harakat nomi(modeli –  $hn$ ) bilan: *Burchimiz – a'lo o'qish. (E+ $H+O_K$ )*

Kesimlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda kesim(modeli –  $K_S$ ) va murakkab kesim(modeli –  $K_M$ ).

Birgina so'z bilan ifodalangan kesim sodda kesim deyiladi: *Paxta va tilladan yurt bezanadi. (Gapning qurilish modeli –  $T+T+E+K_S$ )*.

*Alisher Navoiy – she'riyat mulkining sultoni. (E+ $A+K_S$ )*

Ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalangan kesim murakkab kesim deyiladi: *Ayozli kunlar asta-sekin o'tib borayotir. (A+E+ $H+K_M$ )*

Akademik litseyning 3-bosqich o'quvchilari uchun hozirgi o'zbek adabiy tili darsida kesim murakkabroq ifodalangan. Kesim gap bo'lagi uchun 2-soat ajratilgan.

Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi kesim(modellashtirishda –  $K$ ) deyiladi. Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin. Masalan, *yoz-ma* (tasdiq-inkor) *-say* (mayl) *-di* (zamon) *-m* (shaxs-son). Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolarini

ifodalaydi. Masalan, *kel-di* (o'tgan zamon, III shaxs, tasdiq, aniqlik mayli) yoki *o'quvchi-man* (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik mayli). Kesimlar ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) fe'l kesimlar; 2) ot kesimlar. Fe'ldan ifodalanib, nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lgan kesimlarga fe'l kesim(modellashtirishda –  $F_K$ ) deyiladi. Masalan, *kitob o'qiyapman* gapida *o'qiyapman* nima qilyapman? so'rog'iga javob bo'lib, fe'l kesim sanaladi. *Opam — shifokor* gapida *shifokor kim* (dir)? so'rog'iga javob bo'lib, ot kesim hisoblanadi. Ot, sifat, ravish, son, olmoshdan foydalangan kesimlarga ot kesim (modellashtirishda -  $O_K$ ) deyiladi. Fe'l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal) ma'nolarni kesimlik (fe'l) shakllari orqali ifodalaydi. Ot kesimlarda esa otni kesim qilib shakllantirish uchun maxsus vositalar (-man,-san,-dir; bo'la (-man,-san,-di), hisoblana (-man,-san,-di), sanala (-man, -san,-di) qo'shiladi. Masalan: *U o'quvchi(dir)* (modeli –  $E+O_K$ ).

*U o'quvchi hisoblanadi.* ( $E+O_K$ ).

*U o'quvchi sanaladi.* ( $E+O_K$ )

Kesimlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma kesimlarga bo'linadi.

Faqat bir so'z bilan ifodalangan kesimga sodda kesim, ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalangan kesimga esa qo'shma kesim deyiladi.

Masalan, *qirlarda lolalar ochildi* gapida *ochildi* sodda kesim, «*Lolazor*» *romanini o'qib chiqdim* gapida *o'qib chiqdim* bo'lagi qo'shma kesim sanaladi. Sodda va qo'shma kesimlar ifodalanishiga ko'ra sodda fe'l kesim va sodda ot kesim hamda qo'shma fe'l kesim va qo'shma ot kesimlarga bo'linadi.

Masalan, 1. *Dugonam tashqariga ko'z qirini tashladi.* ( $E+H+F_K^M$ )

2. *Dadam kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi.* ( $E+O_K^M$ )

Birinchi gapda *ko'z qirini tashladi* bo'lagi nima qildi? so'rog'iga javob bo'lib, qo'shma fe'l kesim, ikkinchi gapda esa *kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi*

bo‘lagi *kim hisoblanadi?* so‘rog‘iga javob bo‘lib qo‘shma ot kesim vazifasini bajaradi<sup>1</sup>.

Gap bo‘lishi uchun avvalo, kesim gap bo‘lagini tushunib, uning turlari bilan tanishgach, ega gap bo‘lagi bilan tanishiladi. Har bir gap albatta, gap bo‘laklaridan tashkil topadi. Bu esa turlicha namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida ega hamda kesimning o‘rni nihoyatda katta.

Gap bo‘laklarining ishtiroki va joylashish o‘rni modellashtirib o‘rgatilsa, gap tuzayotganda xatoliklarga olib kelmasligi uchun zamin yaratadi. Bu esa inson ko‘rgan narsasini kodlashtirib o‘rgansa, xotirasida yanada mustahkamroq o‘rnashadi. Bunda biz modellarning tabiiy va fikriy modellar kabi turlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘rgatishimiz kerak.

---


<sup>1</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 3-bosqich o‘quvchilari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010,45-bet

### 3.2. To'ldiruvchini tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.

Gapning asosiy mazmuni bosh bo'laklardan anglashilib turadi. Gapdagi fikr yana ham to'liqroq bo'lishi uchun boshqa so'zlar ham ishtirok etadi. Bunday so'zlar ikkinchi darajali bo'laklar(IDB)dir. Bular, odatda, bosh bo'laklar bilan bog'lanib, gapning mazmunini to'ldiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar ham gapda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi.

5-sinf ona tili darsligida ikkinchi darajali bo'laklar uchun 7 soat ajratilgan. O'quvchilariga ikkinchi darajali bo'laklarni tushuntirishda xuddi bosh bo'laklarni tushuntirganimiz kabi, ularning yosh xususiyatlarni inobatga oldik. Tabiiy modellardan foydalangan holda ikkinchi darajali bo'laklarni tushuntiramiz. Demak, ikkinchi darajali bo'laklarni tasvir orqali tushuntiradigan bo'lsak, biz gapni koinot deb yoki osmon deb qabul qildik. Quyoshni kesim, egani oy deb tasavvur qilib, endi ikkinchi darajali bo'laklarni osmondagi ko'plab chiroyli yulduzlarga qiyoslashimiz mumkin. Yulduzlar quyosh va oydan kichikroq ko'rinadi va kamroq yoritadi. Lekin osmonda yulduzlarning ham o'z o'ri bor. Ular osmonni chiroyli qilib turadi. Demak, gapda ham ikkinchi darajali bo'laklarning ham o'z o'ri va mavqeyi yetarlichadir.



Ikkinchi darajali bo'laklarni misollar orqali ko'rib chiqamiz. Yosh qo'shiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.

Ikkinchi darajali bo‘laklar: qanday qo‘shiqchilar? — *yosh qo‘shiqchilar*(<sub>s</sub>A+E). Nimaga tayyorlandilar? — *tanlovga tayyorlandilar*(<sub>vii</sub>T+K).

Qanday tayyorlandilar? — *puxta tayyorlandilar*<sup>1</sup> (H+K).

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarning 5- sinf ona tili darsligida to‘ldiruvchi uchun 2soat ajratilgan. Ushbu gap bo‘lagi quyidagicha izohlangan:

Fe‘lga bog‘lanib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimni? nimani? kim bilan? nima bilan? singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi bo‘laklarga to‘ldiruvchi(qoidaga asosan modeli - T) deyiladi. *Bu so‘zdan Hamid ajablandi.* (X. Sultonov) (gapning qurilish modeli – A+T+E+K). To‘ldiruvchi hokim bo‘lakka kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfida to‘ldiruvchi uchun 3 soat ajratilgan va u quyidagicha ifodalanadi. So‘z turkumi bilan ifodalangan modeli kesim belgisidan keyin kichik harfda pastki qismda berilmoqda:

1. Ot (ot bilan ifodalanish modeli – $T_o$ )bilan: *Mansurov odamlar bilan xayrlashdi.* (E+ $T_o$ +K)

2. Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.* (Maqol) ( $T_{sf}$ +K,  $T_{sf}$ +E+K)

3. Otlashgan son bilan: *Beshni beshga qo‘shsak, o‘n bo‘ladi.* ( $T_s$ + $T_s$ +K, E+K)

4. Sifatdosh ( $T_{sfd}$ )bilan: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to‘g‘ri ishni qilgan yaxshi.* (Maqol) ( $T_{sfd}$ +E+K, A+T+E+K)

To‘ldiruvchilar, boshqa gap bo‘laklari kabi, birikmali holda(T) ham qo‘llanadi: *Men uning go‘zal siyomosida qalbm ko‘zqusini, visol orzusini, umidim gulshanini ko‘rardim.* (M.Qoriyev) (E+A+H+T+T+T+K, to‘ldiruvchilar – *qalbm ko‘zqusini, visol orzusini, umidim gulshanini*).

*Voris hammaning ertaga ovga jo‘nashini aytdi.* (O.M.) (E+T(hammaning ertaga ovga jo‘nashini)+K)

To‘ldiruvchi tushum kelishigi qo‘shimchasi -ni bilan belgili va qo‘shimchasiz – belgisiz ko‘rinishlarda kela oladi. Belgili va belgisiz tushum

<sup>1</sup> Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili „O‘QITUVCHI“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2016. 52-bet



kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi(modeli –  $v_{siz}T$ ) deyiladi. Masalan: *Birni kessang, o'nni ek.* ( $v_{siz}T+K$ ,  $v_{siz}T+K$ ). To'ldiruvchi gap bo'lagining asosiy turlarini modellashtirishda T belgisidan oldin pastki qismda belgiladik.

Hokim so'zning kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan? kabi so'roqlarga javob bo'lib keladigan kengaytiruvchilari vositali to'ldiruvchilar(modeli –  $v_{li}T$ ) deyiladi. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish, ba'zan o'rin-payt kelishiklari qo'shimchalarini yoki uchun, bilan, orqali, xususida to'g'risida kabi ko'makchilarni olgan so'zlar (yoki so'z birikmasi) bilan ifodalanadi<sup>1</sup>.

*Bu kitobni ukamga oldim.* ( $A+v_{siz}T+v_{li}T+K$ ) *Otdan baland, itdan past.*  
( $v_{li}T+K$ ,  $v_{li}T+K$ )

Akademik litseyning 3-kurs o'quvchilari uchun hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida to'ldiruvchi uchun 2soat ajratilgan va u quyidagicha ifodalangan:

Gapning kesimi bilan bog'lanib predmetlik ma'nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun), nima (bilan, orqali, uchun) so'roqlariga javob bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakka to'ldiruvchi (modeli - T) deyiladi.

*Men undan (kimdan?) so'radim*( $E+T+K$ ).

*Mehringni qo'yib, bunchalar saralab gul (nimani) terding kimga?*( $H+H+T+K+T$ )

To'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildirganligi tufayli ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. To'ldiruvchilar kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'lanish-bog'lanmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) mustaqil to'ldiruvchilar;

b) nomustaqil to'ldiruvchilar. To'g'ridan to'g'ri kesimga tobe bog'lanib kelgan to'ldiruvchilar mustaqil to'ldiruvchilar sanaladi. Masalan, *seni sog'indim* gapida kimni? so'rog'iga javob bo'luvchi seni so'zi kesim vazifasida keluvchi *sog'indim* bo'lagiga bog'lanib, mustaqil to'ldiruvchi(modellashtirishda –  $T_m$ )

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne'matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2014, 93-bet

vazifasida keladi. Kesim vazifasida kelmagan, bunday to'ldiruvchilar o'zi bog'langan fe'l bilan bog'langan to'ldiruvchilar nomustaqil to'ldiruvchi (modeli – Tnm) hisoblanadi. Shuning uchun u biron bir ikkinchi darajali bo'lakning tarkibiy qismi — bo'lakning bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *Dangasaning non yeyishini ko'r* gapida dangasaning non yeyishini birikmasi nimani? so'rog'iga javob bo'lib, birikmali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo'lagi esa kimning? va nimani? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchi (dangasaning) va to'ldiruvchi (non)larni o'z ichiga oladi. Bu bo'lak tarkibidagi non bo'lagi nomustaqil to'ldiruvchi, bo'lakning bo'lagidir<sup>1</sup>.

To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

Tushum kelishigi orqali ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz( $v_{siz}T$ ), qolgan shakllardagi to'ldiruvchilar vositali to'ldiruvchi( $v_{li}T$ ) sanaladi<sup>2</sup>.

To'ldiruvchi gap bo'lagining ikki turi ya'ni vositali va vositasiz to'ldiruvchilar, qaysi so'z turkumi bilan ifodalangani, mustaqil yoki nomustaqil to'ldiruvchilar kabi turlari ham modellashtirishda ifodalandi. Ko'rib o'tganimizdek turlari kichik ko'rinishda T belgisining pastki qismida berilgan. To'ldiruvchi gap bo'lagi bilan gap yanada tushunarliroq ifodalanadi. Aytilayotgan fikr yana ravshanlashadi. Chet tillarning grammatikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, sodda gap tuzilishi qolipida ega va kesimdan keyin to'ldiruvchi gap bo'lagi turadi. Bu esa to'ldiruvchining gap aniqroq ifodalanishi uchun kerak ekanligidir.

---

<sup>1</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 46-bet

<sup>2</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 48-bet

### 3.3. Holni tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.

Hol gap bo‘lagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darsliklarida ancha keng berilgan va ko‘p soatlarni tashkil qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarning 5- sinf ona tili darsligida hol gap bo‘lagi uchun 1soat ajratilgan va u quyidagicha izohlangan:

Fe‘lga bog‘lanib, qachon? qayer (-da, -ga, -dan) ? qanday (qilib?) nima uchun? nima maqsadda? singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi gap bo‘lagiga hol deyiladi. Hol fe‘ldan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini, o‘rnini, sababini, maqsadini bildiradi. Tahlil jarayonida hol ostiga nuqtalardan iborat chiziq (.....) chiziladi. Tabiiyki, ushbu gap bo‘lagining ham modelida so‘zning birinchi harfi lotin alifbosidagi belgisi olingan. Gap qurilishida hol gap bo‘lagining modeli – H.

Masalan: *Maktabga ketdi* – H+K.

*Ertaga ertalab majlis bo‘ladi* – H+H+E+K.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf ona tili darsligida hol gap bo‘lagi uchun 4 soat ajratilgan bo‘lib, u quyidagicha ifodalangan:

Hol ko‘proq gap markazi – kesimga bog‘lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o‘rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, darajamiqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo‘lakdir. Hollar qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Hollar ravish so‘zlar(r) bilan, kelishik shaklidagi va ko‘makchili otlar bilan, sifat(sf), son(s), taqlid so‘z(ts) va undovlar(u) bilan, fe‘lning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Hollar sodda(s) (bir so‘zdan iborat) va murakkab(m) (ikki va undan ortiq so‘zdan iborat) tuzilishga ega bo‘ladi<sup>1</sup>.

Hol gap bo‘lagining asosiy turlarini belgilashda ularning birinchi harflari olinib, hol belgisidan oldin pastki qismida berildi. Holning turlari quyidagicha:

---

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 82-bet

Ish-harakatning o‘rnini bildirib, qayerga? qayerdan? qayerda? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lgan bo‘lak o‘rin holi (biz o‘rin holini modeli uchun – o·H ni belgiladik ) deyiladi. O‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. O‘rin holi makon-zamon (jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish) kelishliklaridagi so‘zlar yoki ko‘makchili otlar va o‘rin ravishlari bilan ifodalanadi. Misollar: *Poyezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yo‘l oldi.* (E+T+H+o·H+K)

*Shu yerdan boshlanur daryo va quyosh.* (o·H+K+E+E)

Ish-harakat yoki holatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol payt holi (payt holi uchun model – p·H) deyiladi.

Masalan: *Bugun poytaxt mardlar sha‘niga, Bir ming to‘pdan yo‘lladi salom.* (G‘.G‘.) (p·H+E+A+T+A+T+K+K)

*Har yili 1-sentabrda mustaqillik kuni keng nishonlanadi.* (p·H+E+H+K)

Payt holi ko‘pincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan besh yil ilgari, o‘sha kundan beri, shu yildan boshlab shaklidagi so‘z birikmalari ham gapda birgina payt holi sanaladi<sup>1</sup>.

Ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday? qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol ravish holi (ravish holi uchun model - r·H) deyiladi.

Misollar: *“Lasetti” yangi asfalt yo‘lda tez yurib ketdi.* (E+A+o·H+r·H+K)

*Shoir shamning uchini avaylab kesdi.* (E+A+T+r·H+K)

Ravish holi ravish, fe‘l va ko‘makchili otlar bilan ifodalanadi.

Ish-harakatning miqdori va darajasini bildirib, qancha? nechta? necha marta? qay darajada? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lgan hol daraja-miqdor holi (daraja-miqdor holining modeli – d·M·H) deyiladi. Daraja-miqdor hollari sonlar, miqdor ravishlari, marta so‘zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi:

*Paxta to‘g‘risida ko‘p yozdi.* (A. Q.) (T+d·M·r·H+K)<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 84-bet

Ish-harakatning sababini bildirib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli? kabi soʻroqlarga javob boʻlgan hol sabab holi(sabab holining modeli – sH) deyiladi.

Misollar: *Tinchlik tufayli yurt obod.* (sH+E+K)

*Yaxshi oʻqigani uchun u mukofotlandi.* (sH+E+K)

Ish-harakatning maqsadini bildirib, nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani? kabi soʻroqlarga javob boʻlgan hol maqsad holi(maqsad holining modeli – mH) deyiladi.

Misollar: *Qoratoʻy doʻstining dov-daragini surishtirish uchun yelib-yugurdi.* (O.) (E+mH+K)

*Bolalar oʻynab kelgani koʻchaga chiqib ketdi.* (O.) (E+mH+o·H+K)

Akademik litseyning 3-kurs oʻquvchilari uchun hozirgi oʻzbek adabiy tili darsligida hol gap boʻlagi uchun 2 soat ajratilgan va u quyidagicha ifodalangan:

Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap boʻlagiga hol (modeli – H) deyiladi. Hollar qanday? qanday qilib? qay holda (tarzda?), qachon (-gacha,-dan, -dan buyon)? qayer (-da, -ga,-dan?), nima sababdan? nima maqsadda? kabi soʻroqlarga javob boʻladi.

Hol doimo feʼl kesimga bogʻlanadi. Masalan, *Quyosh koʻkdan moʻralab qarar* gapida *qarar* soʻziga *moʻralab* soʻzi bogʻlanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, koʻkdan soʻzi qarar soʻziga bogʻlanib, uning oʻrnini bildiradi. Baʼzan hol ot kesimlarga ham bogʻlanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning oʻrnini bildiradi.

Masalan: *Andijonda oʻt yoqsam, Oʻshda tutuni.* (H+T+K, H+K)

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan feʼllarga ham bogʻlanishi mumkin. Hol bogʻlanib kelgan feʼlning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga koʻra hollar xuddi toʻldiruvchilar kabi mustaqil (modeli – Hm) va nomustaqil holler(modeli – Hnm)ga boʻlinadi.

---

<sup>1</sup> Qodirov M. Neʼmatov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Choʻlpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 85-bet

To'g'ridan-to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar (holning mustaqil turi modeli – Hm) deyiladi.

Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish.* (H.Olimjon) (Hm+K+E)

Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi *dalalarda* o'rin holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir. Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hol hisoblanadi. Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi.* Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan *daladan* bo'lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi *charchab kelgan* bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol nomustaqil hol (bu gapda nomustaqil hol – daladan so'zi charchab kelgan bo'lagiga bog'lanib, bitta gap bo'lagi vazifasida kelgan, ya'ni aniqlovchi – daladan charchab kelgan – qaysi? Shunda bu gapda sifatdoshli o'ram bo'lib quyidagicha modellashtiriladi: A<sub>sfd</sub>+E+H+K ) hisoblanadi.

Hollar o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ravish holi(modeli – <sub>R</sub>H); 2) o'rin holi(modeli – <sub>O</sub>·H); 3) payt holi(modeli – <sub>P</sub>H); 4) sabab holi(modeli – <sub>S</sub>H); 5) maqsad holi(modeli – <sub>M</sub>H)<sup>1</sup>.

Misollar:

*O'quvchilar ushbu asarni sekinlik bilan yoza boshlashdi.* (E+A+T+<sub>R</sub>H+K)

*Qashqarda olis qish kechasini qanday o'tkazaman?* (<sub>O</sub>·H+A+T+H+K)

Hol gap bo'laklaridan eng katta hajmli bo'lib, modellashtirisha ham ancha murakkab jarayonni qamrab oladi. Holning turlari, qaysi so'z turkumi bilan ifodalangani, mustaqil yoki nomustaqil hollar ham modellashtirishda belgilandi va turlarining modellari pastki qismida ko'rsatib o'tildi. Holning asosiy turlari uchun bosh harflar, hol belgidan oldin, mustaqil yoki nomustaqil hol modellari esa hol modelidan keyin berildi. Ushbu modellar H modelining pastki qismida belgilandi.

---

<sup>1</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 64-bet

### 3.4. Aniqlovchini tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish.

Aniqlovchi gap bo‘lagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida barcha gap bo‘laklaridan keyin beriladi. Aniqlovchi ba‘zi ilmiy adabiyotlarda bo‘lakning bo‘lagi sifatida qaralib, gapning lisoniy qurilishi (LSQ)da ifodalanmagan. Lekin umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida gap bo‘laklarini o‘qitishda aniqlovchi uchun ham bir necha darslar berilganligi modellashtirishimizga asos bo‘lib xizmat qildi. Aniqlovchi umumiy ta‘lim maktablarida quyidagicha ifodalangan:

Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kimga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? kimning? nimaning? kabi so‘roqlarga javob bo‘luvchi gap bo‘lagiga aniqlovchi(anqiqlovchi gap bo‘lagining modeli qoidamizga binoan birinchi harfi olingan va modeli – A ) deyiladi.

Aniqlovchilar ma‘nosiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. 1. Sifatlovchi anqiqlovchi. 2. Qaratqich anqiqlovchi. Tahlilda anqiqlovchilar ostiga to‘lqinli chiziq chiziladi.

Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? qancha? so‘roqlariga javob bo‘lgan anqiqlovchiga sifatlovchi anqiqlovchi(Gap bo‘lagining modeli - sA) deyiladi<sup>1</sup>. Gapni modellashtirishda anqiqlovchi gap bo‘lagi o‘rganilayotgan bo‘lsa, faqat anqiqlovchining modeli kengaytirilib berildi.

Masalan: *Bu yerda qattiq sovuq kunlar kam bo‘ladi.* (gapning modeli – H+sA+E+H+K)

Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildirib, kimning? nimaning? qayerning? so‘roqlariga javob bo‘lgan anqiqlovchiga qaratqich anqiqlovchi(modeli – oA) deyiladi. Qaratqich anqiqlovchi doimo aniqlanmishga bog‘lanadi. Ana shu belgisi bilan tushum kelishigini olgan to‘ldiruvchidan farq qiladi. Tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi doimo fe‘l orqali ifodalangan kesimga bog‘lanadi.

---

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – “Ma‘naviyat” 2015. 51-bet

Solishtiring: *Olmaning bargi* ( $Q_A+E$ ), *olmani yedim*<sup>1</sup> ( $V_{II}T+K$ )

Barcha gap bo'laklari kabi aniqlovchi ham umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfida kengroq berilgan. Aniqlovchi va uning turlari uchun 4 soat ajratilgan va u quyidagicha ifodalangan.

Gapning biror bo'lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi qanday? qaysi? nechanchi? qancha? nechta? kimning? nimaning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Aniqlovchi narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildiradi. Aniqlovchi ega, ot kesim, to'ldiruvchi va holga bog'lanadi va modellashtirishda quyidagicha berildi:

*Bahaybat samolyot (ega) yerga ohista qo'ndi.* ( $A+E+H+H+K$ )

*Salimjon – a'lochi o'quvchi (ot kesim).* ( $E+A+O+K$ )

*Ilg'or ishchilarga (to'ldiruvchi) mukofotlar topshirildi.* ( $A+T+E+K$ )

*Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da (hol) uchrashdik.* ( $T+A+H+K$ )

Aniqlovchilarning bir xili narsa-buyumning belgisi (rangi, miqdori, mazasi, hajmi) ni bildirsa, boshqa xili narsa-buyumning kimga yoki nimaga qarashlilikini bildiradi. Shunga ko'ra aniqlovchilar ikkiga bo'linadi:

1) sifatlovchi aniqlovchi(modeli A modelidan oldin pastki qismda bosh harfda beriladi, ya'ni -  $sA$ ) ; 2) qaratqichli aniqlovchi(modeli A modelidan oldin pastki qismda bosh harfda beriladi, ya'ni -  $QA$ ).

Misol: *Yangi* (sifatlovchi aniqlovchi –  $sA$ ) *binolar qishloqning* (qaratqichli aniqlovchi –  $QA$ ) *husniga husn qo'shmoqda* (Sh.R.)<sup>2</sup>

Gapda shaxs yoki narsa-buyumning belgi-xususiyati, hajmi, shakli, mazata'mi, rang-tusi, miqdori, tartibi kabi ma'nolarni anglatadigan aniqlovchi sifatlovchi aniqlovchi(modeli –  $sA$ ) deyiladi. Sifatlovchi bog'lanib kelgan so'z sifatlanmish deb ataladi: *Mustaqil O'zbekiston, qizil gul, mohir qo'llar, qo'shni hovli, kuzgi bug'doy, uzoqdagi do'st, temir eshik kabi.*

<sup>1</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – "Ma'naviyat" 2015, 52-bet

<sup>2</sup> Qodirov M. Ne'matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 95-bet



Sifatlovchi aniqlovchilar quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi va soʻz turkum turlari Aniqlovchi modelidan soʻng pastki qismda va kichik harfda berilmoqda:

1) sifat(modeli – sf) bilan: *Uning ziyrak qoʻngʻir koʻzlarida horgʻinlik bor edi.* (S. Anorboyev) (gapning qurilish metodi –  $QA+SA_{sf}+T+E+K$ )

2) son(modeli – s) bilan: *Tepalikdagi chinor, ikki tup sadaqayragʻoch toʻrt-besh kishilik talay supalarga soya solib turardi.* (A.Q.) ( $SA+E+SA_s+E+SA_s+H+T+K$ )

3) olmosh(modeli – ol) bilan: *Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu ajoyib gullarning gʻunchalarini yozmoqda.* (I. Rahim) ( $SA+E+SA_{ol}+QA+T+K$ )

4) ot(modeli – o) bilan: *Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.* (U.) ( $SA_o+T,SA_o+TK+QA+E$ )

5) ravish(modeli – r) bilan: *Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yigʻila boshladi.* (O.) ( $SA_r+H+E+K$ )

6) sifatdosh(modeli – sfd) bilan: *Mayin esgan shabada koʻnglimizni chogʻ qildi.* ( $SA_{sfd}+E+T+K$ )

7) taqlidiy soʻz(modeli – ts) bilan: *Zavodning mashina boʻlimidan gurs-gurs zarb uzluksiz eshitilib turardi.* (O.)<sup>1</sup> ( $QA+H+SA_{ts}+E+H+K$ )

Sifatlovchi aniqlovchilar baʼzan oʻziga qarashli soʻzlar bilan birikmali holda qoʻllanadi: *Jamilovning egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyogʻida kavkazcha etik, boshida chust doʻppi edi.* (S. Anorboyev) ( $QA+T+SA(egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyogʻida kavkazcha etik, boshida chust doʻppi)+E+K$ )<sup>2</sup>.

Gapning biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashlilikini, xosligini bildirgan boʻlagi qaratqichli aniqlovchi(modeli - QA) deyiladi. Aniqlovchining bu turi qaratqich kelishigidagi soʻzlar bilan ifodalanadi. Qaratqichli aniqlovchi quyidagi

<sup>1</sup> Qodirov M. Neʼmatov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Choʻlpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 97-bet

<sup>2</sup> Qodirov M. Neʼmatov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Choʻlpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 97-bet

soʻz turkumlari bilan ifodalanadi va soʻz turkumi ham modellashtirishda belgilanadi:

1) ot bilan: *Shiftga osigʻliq qirqinchi chiroqning qalpogʻi uy devorlarining tepa yogʻiga choʻziq soya solgan. (H.Gʻ.)* ( $sA+Q A_o+E+Q A_o+H+H+K$ )

2) otlashgan sifat bilan: *Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda. (Maqol)* ( $Q A_{Osf}+E+K+H, Q A_{Osf}+E+K+H$ )

3) otlashgan son bilan: *Birining koʻzi qora, ikkinchisining koʻzi koʻk edi.* ( $Q A_{Os}+E+K, Q A_{Os}+E+K$ )

*Oʻnning yarmi – besh.* ( $Q A_{Os}+E+K$ )

4) olmosh bilan: *Bizning eshon – kabobpazlarning piri. (A.Q.)* ( $Q A_{ol}+E+Q A_o+K$ )

Boshqa quyi darsliklarga qoʻshimcha holda aniqlovchining yana bir turi ham ushbu darslikda berilgan. Izohlovchi aniqlovchining bir turi boʻlib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Izohlovchilar, koʻpincha, ot soʻzlar bilan ifodalanadi: *muhandis Rustamov, usta Qodir, mayor Ahmedov, shoira Zulfiya kabi.* Izohlovchi bogʻlangan boʻlak izohlanmish hisoblanadi. Izohlanmish shaxsning millati, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi, jinsi va boshqa qoʻshimcha belgilarini tavsiflovchi boʻlak izohlovchi deb yuritiladi va ushbu izohlovchini ham aniqlovchining bir turi sifatida modellashtirishda berildi:

1) unvon, amal: *Kapitan Mansurov soʻzladi. (I A+E+K) Anjumanda direktor Xoliqov ham qatnashdi. (H+I A+E+K)*

2) mashgʻulot, kasb: *Oshpaz Shukur, gulchi Nizom va duradgor Vahobjonlar yetib kelishdi. (I A+E+K) yoki (I A+E, I A+E, I A+E+K)*

3) yosh, jins, qarindoshlik: *Oʻsha kuni Mavjuda xola bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar. (H+E+I A+K)*

4) laqab: *Jalil sovuq, Juman pismiqlarning askiyasini eshitdik. (E+I A, E+I A+T+K)*

5) taxallus: *Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yirik nasriy asarlar muallifidir.*<sup>1</sup> (IA+E+K)

Akademik litseyning 3-bosqich o'quvchilari uchun hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida aniqlovchi gap bo'lagi uchun 4 soat ajratilgan va u quyidagicha ifodalangandir:

Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak aniqlovchi (modeli – A) hisoblanadi.

Masalan, *Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin* gapida nima tarqaladi? so'rog'iga *shakar qovunlarning mayin hidlari* birikmasi javob bo'ladi. Qaratqich aniqlovchi ham, aniqlanmish ham birikmali bo'lib, ular sifatlovchi va sifatlanmishlardan tashkil topgan. *Shakar* (sifatlovchi – sA ) *qovunlarning* (sifatlanmish), *mayin* (sifatlovchi – sA ) *hidlari* (sifatlanmish).

Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifatdoshlar bilan ifodalanadi. Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga ko'ra uch turli bo'ladi:

- a) sifatlovchi aniqlovchilar(modeli – sA);
- b) qaratqich aniqlovchilar(modeli – qA);;
- d) izohlovchi aniqlovchilar(modeli – IA);<sup>2</sup>.

Predmetning belgisini (ta'm-maza, xil-xususiyat, miqdor, tartib, o'rin-paytga munosabat) bildirgan aniqlovchilarga sifatlovchi aniqlovchi (modellashtirishda – sA) deyiladi.

*Shirin-shakar mevalardan ta'tib ko'ring!* (sA+T+K)

Sifatlovchi aniqlovchilar qanday? qanaqa? qancha? nechta? qaysi? qanaqa? qayerdagi? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, *qizil* (qanday?) *olma*,

---

<sup>1</sup> Qodirov M. Ne'matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2014, 100-bet

<sup>2</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 68-bet

*uchta* (nechta?) *olma*, *ana bu* (qaysi?) *olma*, *adirdagi* (qayerdagi?) *olma*, *kechagi* (qachongi?) *olma*, *uchinchi* (nechanchi) *sinf* kabi<sup>1</sup>.

Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik belgisini bildirgan aniqlovchiga qaratqich aniqlovchi (modellashirishda –  $QA$ ) deyiladi. Masalan, *Mirzacho'lning shamoli. O'rik guli* kabi<sup>2</sup>.

Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lakka izohlovchi aniqlovchi (modeli –  $IA$ ) deyiladi. Masalan, *akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar* kabi. Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Erk kuychisi — Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini sevib o'qiyman*<sup>3</sup>. ( $IA+QA+T+K$ )

Aniqlovchi gap bo'lagi LSQda bo'lakning bo'lagi sifatida qaralib, qoliplashtirishda berilmagan edi. Chunki aniqlovchi barcha gap bo'lagiga tobe bo'lib keladi. Lekin umumiy o'rta ta'limda aniqlovchining turlari va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi berilgan. Modellashirishda ham ushbu jihatlar inobatga olinib, qoliplashtirildi.

Umuman ikkinchi darajali bo'laklar gapni to'ldirib, izohlab keladi. Ularning joylashish tartibi ham turli xil. Masalan, aniqlovchi barcha gap bo'laklaridan oldin kelishi mumkin, to'ldiruvchi kesimdan oldin, hol kesimga tobelanib, kesimdan oldin yoki egadan oldin ya'ni gap boshida ham kela oladi. Ushbu jihatlar esa tilning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu kabilarni oson va tezda o'rganib esda saqlab qolish uchun modellashirish metodi ancha samarali hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 69-bet

<sup>2</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 71-bet

<sup>3</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. TOSHKENT – «ILM ZIYO» – 2010, 75-bet

#### IV BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI

Men Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik litseyida amaliyot o‘tadim va shu amaliyot davrida litseyning o‘z kasbining mohir ustalari, mahoratli ustozlarning darslarini kuzatdim. Jumladan, Raxmanova Go‘zal, Tojiyeva Zuhra, Ahmedova Zebuniso va Pardayeva Nafisa opalarning bevosita rahbarligida o‘tgan o‘n bir haftalik amaliyot men uchun ancha katta maktab bo‘ldi.

Men ushbu litseyning 1-kurslariga ona tili faidan, 2-kurslarga esa ona tili (maxsus kurs) fanidan dars berdim. Men tadqiq etayotgan BMI mavzum ikkinchi kurslarning ona tili (maxsus kurs) faniga mos keldi. Shuning uchun mening ochiq darsim “Gap bo‘laklari” mavzusini modellashtirish orqali tushuntirishga harakat qildim. Ushbu darsda rus va inglizcha modellar va atama, tayanch tushunchalardan ham foydalandim. Bu esa o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otdi. Quyida esa ushbu arsnig ishlanmasini keltiramiz:

Jo‘rayeva Layloning Akademik litseyning II-bosqich o‘quvchilari uchun “Ona tili (maxsus)” fanidan “Gap bo‘laklari” mavzusida Ochiq dars ishlanmasi

#### Ta‘lim berish texnologiyasi

Mavzu:	GAP BO‘LAKLARI	
O‘quvchilar soni: 33ta	Vaqti: 80 daqiqa	
Mashg‘ulot shakli	Amaliy-nazariy dars	
Mavzu rejasi:	1. Gap bo‘lagi haqida umumiy ma‘lumot. 2. Bosh bo‘laklar 3. Ikkinchi darajali bo‘laklar	
<b><u>Darsning maqsadi:</u></b> <b><u>ta‘limiy maqsad:</u></b> Ushbu mavzu orqali o‘quvchilarga gap bo‘laklari haqida bilim berish.		

**tarbiyaviy maqsad:** Ularning soʻz boyligini oshirish hamda yozma va ogʻzaki nutq faoliyatini oʻstirish.

**rivojlantiruvchi maqsad:** oʻquvchilarda kiritmalar haqidagi bilimlarini rivojlantirish, ushbu mavzu yuzasidan olgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish.

Pedagogik vazifalar:	Oʻquv faoliyati natijalari:
1. Gap boʻlaklar haqida bilimlar berish. 2. Gapning bosh boʻlaklari haqida bilimlar berish. 3. Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari haqida maʼlumot berish	1. Gap boʻlaklar haqida maʼlumotga ega boʻladilar. 2. Gapning bosh boʻlaklari haqida bilimga ega boʻladilar. 3. Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari haqida maʼlumotga ega boʻladilar.
<i>Taʼlim berish usullari:</i>	Suhbat, tushuntirish, koʻrsatish, ogʻzaki soʻrov
<i>Taʼlim berish shakllari:</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruhiy
<i>Taʼlim berish vositalari:</i>	Darslik, oʻquv qoʻllanma, proyektor, kompyuter, tarqatma materiallar.
<i>Taʼlim berish sharoitlari:</i>	Kerakli jihozlar bilan taʼminlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Ogʻzaki nazorat, savol-javob

### **Darsning texnologik xaritasi**

<i>Ish bosqichlari, vaqti</i>	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Oʻquvchi
Tashkiliy qism (10 daqiqa)	1.1. Oʻquvchilar uch guruhga boʻlinadi, guruhlarga nom va sardorlar tanlanadi, mavzu nomi eʼlon qilinadi, mazkur mavzuni yoritishda	Guruhlarga boʻlinadilar va tinglaydilar. Yozib oladilar.

	<p>kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan rejalar o'qib eshittiriladi.</p> <p>1.3. O'quvchilar baholash mezonlari bilan tanishadilar.</p>	Tinglaydilar.
<p>O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash (15 daqiqa)</p>	<p>2.1. Gapda so'zlarning bog'lanishi mavzusi bo'yicha uyga berilgan topshiriq so'raladi.</p> <p>2.2. Uchala guruhga o'tgan mavzuga oid nazorat savollari, tahlil uchun mashqlar bittadan beriladi.</p>	<p>Javob beradilar va topshiriqlarni bajaradilar.</p>
<p>Yangi mavzu bayoni (40 daqiqa)</p>	<p>3.1. Gap bo'laklari va ularning turlari haqida ma'lumotlar beriladi.</p> <p>3.2. Ekranda mavzu asosidagi slayd namoyish etiladi .</p> <p>3.3. Gap bo'laklarining har bir turiga namunalar topiladi va tahlil qilinadi.</p>	<p>Erkin bahs-munozara yuritadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>O'qiydilar.</p>
<p>Mustahkamlash va uyga vazifa berish (15 daqiqa)</p>	<p>4.1. Mavzu umumlashtiriladi va umumiy xulosalar yasaladi.</p> <p>O'quvchilar bilan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan "Muz yorildi" o'yini, modellashtirish metodidan foydalanib, misollar topish va o'zbekcha-inglizcha-ruscha berilgan gap bo'laklari ustida ishlash ularni modellarini topish bilan yangi</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Topshiriqni bajaradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Yozib oladilar.</p>

	<p>mavzu mustahkamlanadi.</p> <p>4.2. Mavzu yuzasidan o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan atama, tushunchalarga qisqacha izoh beriladi.</p> <p>4.3. O‘quvchilar baholanadi, uyga vazifa beriladi.</p>	
--	---	--

## **DARS ISHLANMASI**

**Sana:** 26.03.2018

**Guruh:** AF – 62

**Fan:** Ona tili (maxsus)

**Mavzu:** Gap bo‘laklari

**Darsning maqsadi:**

**ta’limiy maqsad:** Ushbu mavzu orqali o‘quvchilarga gap bo‘laklari haqida bilim berish.

**tarbiyaviy maqsad:** Ularning so‘z boyligini oshirish hamda yozma va og‘zaki nutq faoliyatini o‘stirish.

**rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarda gap bo‘laklari haqidagi bilimlarini rivojlantirish, ushbu mavzu yuzasidan olgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, gap bo‘laklarini modellashtirish metodi orqali tushuntirish.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi va nazorat qiluvchi

**Dars jihozi:** Yozuv taxtasi, darslik, proyektor, kompyuter, tarqatma materiallar

**Dars shiori:** Bilim — kuch! Kuch esa bilimdadir. (**Frensis Bekon**)

**Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism (5 daqiqa):**

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash;



d) o‘quvchilarni darsga hozirlash;

c) kun hikmatini keltirish va tahlil qilish (Haqiqat xaridori bo‘l; donolikni, ilmni va aqlni sotmagin. *Hikmatdan* )

## **II. Uyga vazifani so‘rash va baholash (20 daqiqa):**

O‘tgan darsni so‘rash uchun Gapda so‘zlarning qaysi usul va vositalar orqali bog‘lanishi bo‘yicha uyga berilgan topshiriqlar tekshiriladi. O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar beriladi.

1. Gapda so‘zlarni bog‘lovchi vositalar qaysilar?
2. Teng bog‘lanish va teng bog‘lanishni hosil qiluvchi vositalar qaysilar?
3. Tobe bog‘lanish va uning tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar o‘qituvchi bergan savollarga javob beradilar.

## **III. Yangi mavzu bayoni (30 daqiqa):**

O‘quvchilarning gap bo‘laklari yuzasidan umumta’lim maktablarida olgan bilimlari eslatib o‘tiladi. Yangi mavzu modellashtirish metodi orqali tushunarli va atroflicha ochib beriladi. Kerakli o‘rinlarda yozuv taxtasiga yozib tushuntiriladi. Mavzu asosida slayd namoyish etiladi.

### **Mavzu: Gap bo‘laklari**

#### **Reja:**

1. Gap bo‘lagi haqida umumiy ma’lumot.
2. Bosh bo‘laklar
3. Ikkinchi darajali bo‘laklar

Sodda gapning tarkibiy qismi gap bo‘lagi deyiladi. Gap bo‘lagi uning kesimini aniqlashdan boshlanadi. Chunki asosiy xabar kesimda mujassamlangan bo‘ladi. Gap bo‘lagi darajasiga ko‘ra ikki xil:

1) bosh bo‘lak; (BB modellashtirishda ega uchun – E, kesim uchun – K. Demak modellashtirish metodida har bir gap bo‘lagining birinchi harfi lotin alifbosida bosh harfda beriladi.)

2) ikkinchi darajali bo‘lak(model:to‘ldiruvchi – T,hol – H,aniqlovchi – A).

Aytilganidek, ega va kesim – bosh bo‘lak. Gapdagi xabarning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, kesimga tobe bo‘lgan bo‘lak ega deyiladi. Ega gap bo‘lagi modellashtirishda lotin alifbosidagi – E harfi bilan belgilanadi. Ega kim? nima? qayer? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Quyidagi gaplarni modellashtiramiz: *Kishilar (kim) Hakimani va boshqa qizlarni maqtashdi.* (E+T+T+K) *O‘tloqda bedana (nima) ko‘p.* (H+E+K) *Atrof (qayer?) jimjit.* (E+K)

Ega bosh kelishikda bo‘ladi va ifodalanishi(qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘lsa, shu so‘z turkumi modellashtirishda berib o‘tdik), odatda, quyidagicha:

1) ot: *Shamol gul hidlarini atrofga taratdi;* (E<sub>O</sub>+A+T+H+K) 2) olmosh: *Ular to‘garak mashg‘ulotiga muntazam qatnashadi;* (E<sub>OI</sub>+T+H+K) 3) harakat nomi: *O‘qish tugadi;* (E<sub>Hn</sub>+K)

Kesim *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? nima? kim? nechanchi? qanday? nechta?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi .

Kesim qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi : 1) ot kesim(<sub>O</sub>K) ; 2) fe‘l kesim . (<sub>F</sub>K)

Ot kesim – fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari, shuningdek , fe‘lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim. Ot – kesimlar quyidagicha ifodalanadi va modellashtiriladi:

a) ot bilan: Onam – *o‘qituvchi.* (E+K<sub>O</sub>) b) sifat bilan : *Atrof charag‘on.* (E+K<sub>Sf</sub>) d) son bilan : *Birniki mingga, mingniki tumanga .* (E+K<sub>S</sub>, E+K<sub>S</sub>) e) olmosh bilan : *Sen kimsan?* (E+K<sub>OI</sub>) f) ravish bilan: *Ishchi kuchi ozmi ?* (E+K<sub>R</sub>)




Kesimlar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sodda kesim(K<sup>S</sup>) va murakkab kesim(K<sup>M</sup>). Sodda kesim – birgina so‘z bilan ifodalangan kesim. M: *Mard maydonda bilinar.* (E+H+K<sup>S</sup>) Murakkab kesim – ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalangan kesim . M: *Odamlar tarqala boshladi.* (E+K<sup>M</sup>). ushbu turlarining modellari k dan keyin tepa qismda berilgan.

Gapda kesimga tobe bog‘lanib, kimni? nimani? kim haqida? nima haqida? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. To‘ldiruvchi 2 xil: Vositasiz to‘ldiruvchi(modeli –  $v_{siz}T$ ) tushum kelishi bilan keladi. Vositali to‘ldiruvchi(modeli –  $v_{li}T$ ) qolgan barcha kelishik qo‘llanadi. Hol kesimning belgisini bildirib, o‘rin( $O\cdot H$ ), payt( $P\cdot H$ ), ravish( $R\cdot H$ ), miqdor-daraja( $MD\cdot H$ ) kabi bo‘laklarga bo‘linadi. Ega, to‘ldiruvchi, hol kesimga bevosita, ya‘ni to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanadi. Aniqlovchi boshqa bo‘laklarning belgisini yoki qarashlilikini bildiradi. Qaratqich aniqlovchi(modeli –  $QA$ ) va sifatlovchi aniqlovchi(modeli –  $sA$ )ga bo‘linadi.

Gap bo‘laklari ishtirok etgan gaplarga o‘quvchilar tomonidan namunalar topiladi. Tahlil qilinadi.

#### **IV. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash ( 15 daqiqa):**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash qismida quyidagi tartibda olib boriladi:

-  Mavzu yuzasidan “muz yorildi” o‘yini o‘tkaziladi.
-  Mashlar bajarilib, misollar topiladi.
-  O‘zbekcha-inglizcha-ruscha gap bo‘laklarning nomlarini jadvallarga joylashtirib, ularni modellari topiladi.

1-ilova

“Muz yorildi” 2 guruhda o‘tkaziladi. Guruh qatnashuvchilari nomi bo‘yicha misollar keltiradilar. Topolmay qolgan yoki takror aytilgan holatda o‘yin to‘xtatiladi va shu yerda “muz yoriladi”.

1-guruh

2-guruh

Bosh bo‘laklar

Ikkinchi darajali bo‘laklar

2-ilova

“Kim chaqqon” o‘yini orqali 3 guruhga quyidagi “Ikki qismli kundalik” texnologiyasi tarqatiladi.

Mashq bajarish ushbu matndagi gaplarni modellarini tuzib chiqing.

### Teri qo‘ldan ketar

Misollar	Modellari
Ko‘chada shoshib ketayotgan bir odamdan so‘rashdi:	O‘H+sA+vliT+fK
— Nega buncha shoshyapsan? Ranging ham o‘chgan, nima bo‘ldi.	
Odam aytdi:	
— Eshitmadingmi hali? Shahar sultonining ko‘ngli uchun bozordagi eshaklarni so‘yib, terisini shilib, ichiga somon to‘ldiryaptilar.	
— Xo‘sh,xo‘sh? Lekin sen odamsan-ku?	

### 3-ilova

<u>O‘zbekcha</u>	<u>Inglizcha</u>	<u>Ruscha</u>
Gap	Sentence	слово
Ega	subject	предмет
Kesim		
To‘ldiruvchi		
Aniqllovchi		
Hol		

### **V. Darsni yakunlash (5 daqiqa):**

Darsga xulosa yasaladi, o‘quvchilar baholanadi, rag‘batlantiriladi va uyga vazifa beriladi.

### **UYGA VAZIFA:**

*Mavzuni qayta o‘qish, konspektlashtirish, istalgan yozuvchi asarlaridan 8ta gap topib, modellarini yozib kelish.*

## UMUMIY XULOSALAR VA METODIK TAVSIYALAR

Ta'lim bosqichlarida gap bo'laklarini o'rgatishda modellashtirish metodidan foydalanishga oid amalga oshirilgan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarning, shuningdek, fan dasturi va darsliklarning tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Modellashtirish metodi har qanday sharoitda optimal hisoblanadi. Optimal – eng qulay, eng yaxshi degan ma'nolarni ifodalaydi. Modellashtirish metodi ekonomiya prinsipiga tayanadi. Bunda so'z tejaladi. Vaqt ham kam sarflanadi. O'rganilayotgan obyektни tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi. Modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metod hisoblanadi.

2. Borliqdagi hamma narsalarning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganidek, modellashtirish metodining ham pozitiv-ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham bor. Uning kamchiliklari, salbiy tomonlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

– birinchidan, modellashtirishda faqat struktur va formal belgilarga asoslaniladi. Bunda mazmuniy tomon, semantik qirralar e'tibordan chetda qoladi. Vaholanki, har qanday hodisaning, xususan, lisoniy hodisaning mohiyati shakl va mazmun birligida o'z ifodasini topgan bo'ladi;

– ikkinchidan, bizning obyekt haqidagi bilimlarimiz rivojlanib borgan sari modellar eskiradi. Avvalgi bilimlarni inkor qilish hisobiga fan rivojlanadi. Mavjud modellar bilimlarimiz ufqini cheklaydi va xato tasavvurlarga olib kelishi mumkin;

– uchinchidan, tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa boshqa obyektlar ta'siridan xoli bo'lmaydi. Ya'ni modellar nisbiylik xarakteriga ega, biz ularni mutlaq haqiqat sifatida qabul qila olmaymiz<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> A.Rahimov. Kompyuter lingvistikasi asoslari. "Akademnashr" nashriyoti. 2011. 33-34-betlar.

3. Tilni modellashtirish texnik modellashtirishdan farqli ravishda, o'ziga xos xususiyatlarga ega. L.N.Murzinning fikricha, obykti bevosita kuzatuvga berilmagan har qanday fan obyektini modellashtirishga majbur bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham sintaktik birliklarni til va nutq dixotomiyasi orqali yoritish bir qator olimlarning tadqiqotlarida uchraydi. Sintaktik birliklarni modellashtirish muammosini dastlab A.Nurmonovning 1982-yilda e'lon qilingan monografiyasida uchratamiz.

4. O'zbek tilshunosligining grammatika bo'limi ancha katta bo'lim hisoblanib, tilshunoslikning asosiy qismini tashkil etadi. Sintaksisni o'rganish tilni o'rganishga poydevor yaratadi. Sintaksisda so'z birikmasi, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gaplar o'rganiladi. Ushbu qismlar, albatta, morfologiya bo'limi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Shu boisdan ham sintaksisda gap bo'laklari o'rganishda so'z turkumlari bilan birgalikda o'rganiladi. Biror bir so'z turkumi bilan ifodalangan bo'lsa, shu so'z turkumi bilan turlarga ajratilgan. Masalan ot kesim, fe'l kesim, sifatlovchi aniqlovchi kabi.

5. Gap bo'laklarini o'rgatishda modellashtirish metodidan foydalanganda, har bir gap bo'lagining turi va so'z turkumlari beriladi. Avvalgi tadqiqot va ilmiy ishlarda faqat gap bo'lagi modellashtirilgan edi. Endi bu ishda esa yuqorida aytilganidek, modellashtirildi. Gap bo'laklarini tushuntirishda borliqdagi turli jismlar, osmon jismlari, biz uchun eng zarur buyumlarni tasavvur etib ham tushuntirish mumkin. Bunda biz tabiiy modellardan foydalandik.

Masalan, sodda gapni hosil qilish uchun eng kerakli gap bo'lagini biz ko'p foydalanadigan buyum bilan taqqoslab o'rgatilsa, o'quvchiga ancha tushunarli bo'ladi, ularning qiziqishi ortadi va ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Lingvistika sohasining barcha bo'limlarini, ayniqsa, morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'qitishda modellashtirish metodini qo'llash shu bo'limlarga xos mavzularni o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Modellashtirish metodi orqali dars o'tishda har bir o'quvchi bilan imkon qadar individual ishlash kerak. Mazkur metodni o'n ikki yoshli o'quvchilardan

boshlab tadbiq etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga ushbu metodning modellarini o'quvchilar yoshi va sinfiga ko'ra tasniflab o'tishimiz kerak. Modellarini ham o'quvchilar tafakkurining va fikrlash qobiliyatiga qarab, shunga yarashasini tanlash lozim.

Modellashtirishning metodining chizma-tayanch bosqichi 5-sinf o'quvchilariga mos keladi. Ushbu turi mavzuning dastlabki bosqichida qo'llaniladi. Bu o'rganilayotgan lisoniy birlikning tasviriy qurilmasi, chizmadagi asos qism va shu qismlarning o'zaro musosabatidir. Keyingi turi kompakt model asosdan yuzaga keluvchi qismlar, ya'ni mavzuni mustahkamlashda asosdan uzilmagan holda vaqtni tejovchi vosita. O'rganilayotgan mavzuning "mini-portreti", bunday yondashuv o'quvchilarning, nafaqat, o'tilgan mavzuni yaxshi o'zlashtirishlari, balki uning boshqa mavzular bilan aloqadorligini tushunishlarida ham qo'l keladi.

Shu kabi modellashtirishda biror mavzu doirasidagi joriy nazoratlarni ijodiy topshirishda foydalanish mumkin. Bunday motivatsiyali darslar har qanday o'quvchining lingvistik sathlarning semantik qonuniyatlarni yaxshi tushunishlari va aanglashlariga yordam beradi.

Biz tavsiya etayotgan gap bo'laklari va ularning turlarining modellari darsliklarga kiritilsa yoki gap bo'laklari mavzusi o'tilayotganda ushbu metoddan foydalansa, ularni ingliz va rus tillaridagi gap bo'laklari joylashish tartibi, modellari bilan qiyoslab o'rgatilsa, fanlararo integratsiya orqali tushuntirilsa, o'quvchilarda ushbu mavzuga qiziqish uyg'otadi, yaxshi tushunadi va ushbu mavzu ularning xotirasida yanada mustahkamlanadi. Modellashtirish metodining ta'lim jarayonida qo'llanishi o'zlashtirilayotgan mavzu yoki masala yuzasidan mantiqiy fikrlash, o'rganilayotgan qonuniyatning umumiy mohiyatini modellar yordamida tushuntirib berish ko'nikmalarini shakllantiradi.

## TAYANCH SO‘ZLARNING O‘ZBEKCHA – INGLIZCHA – RUSCHA LUG‘ATI

1. Model – model – модел
2. Lingvistik model – linguistic model – лингвистический модел
3. Modellashtirish – modelling – моделировать
4. Grammatika – grammar – грамматика
5. Sintaksis – syntax – синтаксис
6. Gap – sentence – слово
7. Gap bo‘laklari – parts of speech -
8. Ega – subject – предмет
9. Kesim – verb – глагол
10. To‘ldiruvchi – object – объект
11. Vositali to‘ldiruvchi – the indirect object – опосредствованный объект
12. Vositasiz to‘ldiruvchi – the direct object – непосредственный объект
13. Aniqlovchi – attribute – определительный
14. Hol – modifier – модификатор
15. Morfologiya – morphology – морфология
16. So‘z turkumlari – parts of speech
17. Ot – noun – название
18. Sifat – adjective – качество
19. Son – number – количество
20. Olmosh – pronoun – местоимение
21. Fe‘l – verb – поведение
22. Ravish – adverb – форма действия
23. Sifatdosh – the infinitive – причастие
24. Sifatdosh – the gerund



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент, 2017.
3. “Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016-йил 13-майдаги ПФ-4797-сонли фармони.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
5. “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. 2017 йил.
6. Абдиев М., Сафаров П., Ноанъанавий дарс шакллари. (Она тили ва адабиёти учун қўлланма) – Самарқанд, 1996.
7. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. – Тошкент, 1994.
8. Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009.
9. Akramov Sh.T. Sintaktik gap bo‘laklariga xos ayrim xususiyatlar magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan. Dissertatsiya. – Qo‘qon, 2010.
10. Almatov T, Yadgarov Q. va Almatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.

11. Axtamova Y. Gapda kesim oʻrnida kelgan kvalifikativ sintaksemlar tipologiyasi (ingliz va oʻzbek tillari misolida). Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2011.
12. Bobokalonov R. Oʻzbek tilida gap sintaksisi va soʻz-gaplarning sistem-struktur talqini. – Toshkent: Fan, 2006.
13. Church J., King I. Bilingualism and Network Externalities // Canadian Journal of Economics. 1993. №26 (2).
14. Frederick J. Newmeyer. Grammar is grammar and usage is usage, 1994.
15. Gʻapporov M. Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: “Turon - iqbol”, 2017.
16. Gʻulomov A., Qodirov M. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
17. Grishman R. Computational linguistic//Cambridge university Press, 1994.
18. Кодухов В.И. Методы лингвистического анализа. – Ленинград, 1963.
19. Mahmudov N. Tilimizning tillo sandigʻi. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom, 2012.
20. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2015.
21. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
22. Nabiyeva M. Kesim kengaytiruvchilarini aniqlashda sintaktik pozitsiyaning oʻrni. Akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2007.
23. Natalia Slioussar. Grammar and Information Structure a study with reference to Russian. Copyright, 2007.

24. Неъматов Ҳ. Лингвистик тадқиқот методикаси, методологияси ва методлари. – Бухоро: НС, 2003.
25. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Халияров Х.Х., Махмудов Н.М. Нурманов Н., Сайфуллаева Р.Р. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса//Сов. тюрк. -1988. -№ 4.
26. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухаммедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков: Тез. формально-функцион. исслед.//Сов. тюрк. -1984. -№ 5.
27. Нурмонов А.Н. Лисоний бирликларда умумийлик-хусусийлик, моҳият-ҳодиса диалектикаси//Ўзбек тили ва адабиёти. - 1995. -№ 1.
28. Нурмонов А.Н. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти, -1988. -№ 5.
29. Po‘latov A., Muhammedova S. Kompyuter linglistikasi. – Toshkent, 2007.
30. Пулатов А. Текст лекций по математической и компьютерной лингвистике (электронный вариант).
31. Qodirov M. Ne‘matov H. Abduraimova M. Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2014.
32. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Toshkent: “Akademnashr”, 2011.
33. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Andijon, 2012.
34. Раҳимов Й. Мантиқ. –Тошкент: Университет, 1994.
35. Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003.
36. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.

37. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., va b.lar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009.
38. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994.
39. Selten R., Pool J. The Distribution of Foreign Language Skills as a Game Equilibrium // Game Equilibrium Models IV: Social and Political Interaction. Berlin: Springer-Verlag, 1991.
40. Teun A. Van dijk. Models for text grammars. 2001.
41. Tillayeva R. T. Lisoniy birliklarni modellashtirish. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Namangan, 2016.
42. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
43. Yo‘ldoshev J.G‘. Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008.
44. Yo‘ldosheva N. “Yig‘iq gapning formal-funksional talqini” f.f.n. dis. –Toshkent, 2010.
45. Yo‘ldosheva Sh. Kompyuter lingvistikasi. – Nukus, 2012.
46. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – Toshkent: Bayoz, 2013.
47. Ziyomuhamedov B., Pedagogik texnologiya – zamonaviy milliy modeli. –Toshkent, 2009.
48. Зиёмухаммадов Б, Абдуллаева СҲ., Илғор педагогик технология: Назария ва амалиёт. –Тошкент: “Абу Али ибн Сино”, 2001.
49. Ғулломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълимнинг мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
50. Ғулломов А.Ғ. Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
51. Ғулломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

52. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. – Москва: МГОУ, 1992.

53. Шодмонов Э., Абдурахмонов Х. Сўз-гап ва тўлиқсиз гап//Тошкент пед. инс-ти илмий асарлари. Тошкент – 1972.

### **Elektron adabiyotlar**

1. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)
2. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
6. [www.ziyonet.](http://www.ziyonet.uz)
7. <http://www.edu.uz/>